O'quvchilar pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash; oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari; xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari; pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullari; yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiqot yo'nalishlari; xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash; taklif etilgan echimlar asosida xonalarni jihozlash; shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari; uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari; ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari; uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari; suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish; qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar Uy-ro'zg'or asoslari fani ma'ruzalarida o'tilgan mavzulardan foydalanib amaliy mashg'ulotlar bajarishni o'rganadilar. Amaliy mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

Birikmasiz to'g'ri burchak shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi.

Yog'och materiallarini rejalash, yo'nish, arralash, randalash. Ish usullarini o'rganish va malaka hosil qilish;

Birikmasi egri chiziq shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi Yog'och materiallarni o'yish va parmalash, pardozlash (silliqlash).

Mix va burama mixlar yordamida oddiy birikma tayyorlash texnologiyasi Elimlar yordamida murakkab birikma tayyorlash texnologiyasi Burchakli murakkab bir tirnoqli birikmalarni tayyorlash texnologiyasi. Timoqli birikmalar tasnifi va texnologiyasi

Burchakli o'rtalik birikmalar tayyorlash texnologiyasi. Quloqcha va turumli o'rtalik birikmalar texnologiyasi.

Murakkab ko'p timoqli birikmalar tayyorlash texnologiyasi Burchakli ko'I timoqli birikmalar texnologiyasi va biriktiriladigan birikmalar

Yog'ochlarga kuydirib ishlov berish texnologiyasi Yog'ochlarni kuydirib ishlov berishga ishlatiladigan materiallar va asboblarni rasm chizish.

Yog'och materiallariga pardozi berish va pardozlovchi asboblarni Yog'ochlarga lak bilan pardozi berishda uning strukturasi to'la bilgan holda pardozlash. Lakli materiallar tavsifi va uni yuzaga surtish uslubi. Duradgorlik polirovkasi va uni bajarish texnologiyasi

Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya ishlarida talabalar hayotiy faoliyatida ko'p uchraydigan ta'mirlash ishlariga oid vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

Laboratoriya mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

Yog'och materiallariga mexanik ishlov berish texnologiyasi

Yog'och materiallariga yumaloq arrali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga tasma arrali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga randalovchi (fugankalash) dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga reymusli (xatkashli) frezali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga parmalash va o'yish dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi

Tokarlik dastgohida yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi

Tokarlik dastgohlarida yogochga kuydirib ishlov berish

Yog'ochsozlik va mebelsozlik korxonalariga sayoxat

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish.
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismlarini o'zlashtirish.
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash.
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.

- yangi texnikalami, apparaturalami, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish.
- talabning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq boigan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish.
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distantion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

Rejalash asboblari Arra turlari

O'yish va kesish usullari

Yoqochga ishlov berish dastgoxi xaqida tushuncha Randa turlari

Japs randa va uning ishlatilish soxalari

Elektr parmash mashinasi (mexanizmi) tuzilishi

Birikmalar va ulaming vazifasi

Diskli arra tishlari shakli va ulami charxlash

Nazorat - ulchov asboblari

Yogoch materiallami quritish

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish

DVP maxsulotlari

DSP maxsulotlari

Shpingaletlar va ulaming ishlatilishi Oynalar va ulaming ishlatilishi Daraxtlaming texnik va mexanik afzalliklari Faneralar turlari

Yoqochlarni bo'yiga arralash usuli Yog'ochga kuydirib ishlov berish turlari Yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi Yogochga kuydirib ishlov berish

Yog'ochlarga o'yish dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi To'g'ri timoqli birikma tayorlashning texnologik xaritasini tuzish Jo'va tayyorlashning texnologik xaritasini tuzish Birikmalarni rejalash

Fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti

Didaktik vositalar

Didaktik vositalar: uy-ro'zg'orda ishlatiladigan texnik mashinalarning turlari keltirilgan jadval, uy-ro'zg'or texnik mashinalarini ta'mirlash asboblarning turlari, turli xil sxemalar, tarqatma materiallar.

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: mavzuga oid ko'rgazmali qurollar va plakatlar.

Video-audiouskunalar: kompyuter, proyektor, kolonkalar.

Kompyuter va multimediali vositalar: prezentatsion va elektron-didaktik vositalar.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. У.Иброхимов “Электр машиналар” Т., Укитувчи, 2001.
2. А.С.Искандаров. материалларни кесиб ишлаш, кесувчи асбоблар ва станоклар.-Т.: «Фан ва технология» 2004.
3. Н.Ш.Турдиев “Радиоэлектроника асослари” Т., Укитувчи, 1992.
4. А.Нигматов. “Радиоэлектроника асослари” Т., Укитувчи, 1994.
5. С.Махкамов “Укув устахоналарида утказиладиган амалий машгулотлар”. Тошкент., Укитувчи, 1982.
6. Р.С.Шермухамедов, С.С.Яхяев, А.Э.Пармонов. Чилангарликдан амалий ишлар.-Т.: «Иктисод-молия» 2007.
7. G'.M.Abduqodirov. Kasb ta'limi praktikumi.-Т.: “Sharq” 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar

Х.Рихситиллаев “Уй рузгор иситиш асбоблари” Тошкент тезкор босмахонаси, 2006.

К.В.Usmonov. “Metall kesish asoslari” Т; «O'qituvchi» 2004.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz

Kirish

Uy-ro'zg'or asoslari fani uy-ro'zg'or yuritish, uy-ro'zg'or mashinalarini ta'mirlash, pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari, yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni, sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari, uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari va boshqalarni o'rganuvchi fandır.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda uy-ro'zg'or boyumlari, ularni ta'mirlash usullari, hamda jihozlanish dizayni, sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari, uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari va boshqalari haqida ko'nikma va malaka shakillantirishdir.

Fanning vazifasi – pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash; oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari; xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari; pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullari xaqida talabalarga bilim berishdir.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Uy-ro'zg'or asoslari fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

uy-ro'zg'or yuritish;

uy-ro'zg'or mashinalarini ta'mirlash;

uy-ro'zg'or buyumlariga texnik qarov *to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi*;

o'quvchilar pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash;

oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari; xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari;

pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta`mirlash ish usullarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;***

yurtimiz me`morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an`analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo`nalishlari;

xona va fanlar boyicha o`quv kabinetlarida mebel va qo`shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash;

taklif etilgan echimlar asosida xonalarni jihozlash;

shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta`minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari;

uy va xonadonlarni ta`mirlash ishlarining asosiy turlari;

ta`mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari;

uy va xonadonlarni ta`mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari;

suv ta`minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo`mraklarni sozlashda mayda ta`mirlash ishlarini bajarish;

qurilish va ta`mirlash bilan bog`liq kasb-hunarlar boyicha **bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`ladilar.**

Fanning o`quv rejadagi boshqa fanlar bilan o`zaro bog`liqligi va uslubiy jixatdan uzviy ketma-ketligi

Uy-ro`zg`or asoslari fani oliy texnika o`quv yurtlarida o`tiladigan asosiy fanlardan biri bo`lib, «Fizika» fanidan keyin o`qitilib, barcha texnika kurilma va asboblarning elektr qisimlari uchun xilma xil va murakkab texnik masalalar echishda, xisoblash va loyixalashda nazariy asos sifatida qo`llaniladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o`rni

Mazkur fan ishlab chiqarish bilan bevosita aloqada bo`lib, vatanimizning texnika soxalarida elektr va radio texnikasidan unumli foydalanish va yanada rivojlantirish kabi masalalarni ishlab chiqarish bilan qo`shib olib borish yaxshi natijalarni beradi.

Fanni o`qitishda zamonaviy axborot va pedagogik taxnologiyalar.

Talabalarning uy-ro`zg`or asoslari fanini o`zlashtirishlari uchun o`qitishning ilg`or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbqiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o`qitishda plakatlar, chizmalar,

ko‘rgazmali texnik vositalar (kompyuter texnikasi va elektron versiyalar) yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish, bilim ko‘nikma va malakalarni hosil qilish ko‘zda tutiladi.

“Uy-ro‘zg‘or asoslari” fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar boyicha taqsimlanishi:

| t/r | Mavzular nomi | Jami soat | Ma‘ruza | Labaratoriy a | Amaliy mashg‘ulot | Mustaqil ta‘lim |
|------|---|-----------|---------|---------------|-------------------|-----------------|
| 1 | Kirish. Fanining vazifasi va maqsadi. | | | | | |
| 2 | yurtimiz me‘morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an‘analalar hamda zamonaviy taraqqiyot yo‘nalishlari; xona va fanlar boyicha o‘quv kabinetlarida mebel va qo‘shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash; taklif etilgan echimlar asosida xonalarni jihozlash; shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta‘minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari; | 82 | 16 | 10 | 24 | 26 |
| 3 | uy va xonadonlarni ta‘mirlash ishlarining asosiy turlari; ta‘mirlashda qo‘llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari; uy va xonadonlarni ta‘mirlashda qo‘llaniladigan asosiy ish asboblari; suv ta‘minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo‘mraklarni sozlashda mayda ta‘mirlash ishlarini bajarish; qurilish va ta‘mirlash bilan bog‘liq kasb-hunarlar boyicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. | 50 | 10 | 10 | 10 | 26 |
| Jami | | 196 | 26 | 20 | 34 | 52 |

“Uy-ro’zg’or asoslari” fani boyicha ma’ruza mashg’ulotlarining kalendar tematik rejasi.

| t/r | Ma’ruza mavzulari VII-semestr | soat |
|------------|---|-------------|
| 1 | Yurtimiz me`morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an`analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo`nalishlari; | 4 |
| 2 | Xona va fanlar boyicha o`quv kabinetlarida mebel va qo`shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash; | 4 |
| 3 | Taklif etilgan echimlar asosida xonalarni jihozlash; shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta`minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari; | 4 |
| 4 | Uy va xonadonlarni ta`mirlash ishlarining asosiy turlari; ta`mirlashda qo`llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari; | 4 |
| | Jami | 16 |
| t/r | Ma’ruza mavzulari VIII-semestr | |
| 1 | Uy va xonadonlarni ta`mirlashda qo`llaniladigan asosiy ish asboblari; | 2 |
| 2 | Suv ta`minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo`mraklarni sozlashda mayda ta`mirlash ishlarini bajarish; | 4 |
| 3 | Qurilish va ta`mirlash bilan bog`liq kasb-hunarlar boyicha bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`ladilar. | 4 |
| | Jami | 10 |
| | Umumiy soat | 26 |

LABORATORIYA MASHG'ULOTLAR MAVZULARI

| № | Mavzuning nomi va mazmuni. | Soat miq |
|---------------------|--|----------|
| | Yog'ochlarga randalovchi (fugankalash) dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi | 2 |
| | Yog'ochlarga reymusli (xatkashli) frezali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi | 4 |
| | Yog'ochlarga parmalash va o'yish dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi | 4 |
| VIII-semestr | | |
| | Tokarlik dastgohida yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi | 4 |
| | Tokarlik dastgohlarida yogochga kuydirib ishlov berish | 4 |
| | Yog'ochsozlik va mebelsozlik korxonalariga sayoxat | 2 |
| Jami: | | 10 |
| Umumiy soat | | 20 |

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI

| № | Mavzuning nomi va mazmuni. | Soat miq |
|----|---|----------|
| 1. | Mix va burama mixlar yordamida oddiy birikma tayyorlash texnologiyasi | 2 |
| 2. | Elimlar yordamida murakkab birikma tayyorlash texnologiyasi | 2 |
| 3. | Burchakli murakkab bir tirnoqli birikmalarni tayyorlash texnologiyasi. Tirnoqli birikmalar tasnifi va texnologiyasi | 4 |
| 4 | Burchakli o'rtalik birikmalar tayyorlash texnologiyasi. Quloqcha va turumli o'rtalik birikmalar texnologiyasi. | 4 |
| 5 | Murakkab ko'p tirnoqli birikmalar tayyorlash texnologiyasi | 4 |
| 6 | Burchakli ko'l tirnoqli birikmalar texnologiyasi va biriktiriladigan birikmalar | 4 |
| 7 | Yog'ochlarga kuydirib ishlov berish texnologiyasi | 2 |

| | | |
|------|--|----|
| 8 | Yog‘ochlarni kuydirib ishlov berishga ishlatiladigan materiallar va asboblari. rasm chizish. | 2 |
| Jami | | 24 |

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

Rejalash asboblari

Arra turlari

O‘yish va kesish usullari

Yoqochga ishlov berish dastgoxi xaqida tushuncha

Randa turlari

Japs randa va uning ishlatilish soxalari

Elektr parmalash mashinasi (mexanizmi) tuzilishi

Birikmalar va ularning vazifasi

Diskli arra tishlari shakli va ularni charxlash

Nazorat - ulchov asboblari

Yogoch materiallarni quritish

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish

DVP maxsulotlari

DSP maxsulotlari

Shpingaletlar va ularning ishlatilishi

Oynalar va ularning ishlatilishi

Daraxtlarning texnik va mexanik afzalliklari

Faneralar turlari

Yoqochlarni bo‘yiga arralash usuli

Yog‘ochga kuydirib ishlov berish turlari

Yog‘ochlarga ishlov berish texnologiyasi

Yogochga kuydirib ishlov berish

Yog‘ochlarga o‘yish dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi

To‘g‘ri tirnoqli birikma tayorlashning texnologik xaritasini tuzish

Jo‘va tayorlashning texnologik xaritasini tuzish

Birikmalarni rejalash

VII-semestr

| t/r | Mustaqil ta’lim mavzulari | Berilgan topshiriqlar | Bajarish muddati | Hajmi (soatda) |
|------------|---|--|-------------------------|-----------------------|
| 1 | Birikmalar va ularning vazifasi | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 1-2 haftalar | 2 |
| 2 | Diskli arra tishlari shakli va ularni charxlash | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 3-4 haftalar | 2 |
| 3 | Nazorat - ulchov asboblari | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 5-6 haftalar | 2 |
| 4 | Yogoch materiallarni quritish | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 7-8 haftalar | 2 |
| 5 | Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 9-10 haftalar | 2 |

| | | | | |
|---------------------|---|--|-------------------------|-----------------------|
| 6 | DVP maxsulotlari | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 11 haftalar | 2 |
| 7 | DSP maxsulotlari | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 12 haftalar | 2 |
| 8 | Shpingaletlar va ularning ishlatilishi | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 13-14 haftalar | 4 |
| 9 | Oynalar va ularning ishlatilishi | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 15-16 haftalar | 4 |
| 10 | Daraxtlarning texnik va mexanik afzalliklari shakli va ularni charxlash | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 16-17 haftalar | 4 |
| Jami | | | | 26 |
| VIII-semestr | | | | |
| t/r | Mustaqil ta'lim mavzulari | Berilgan topshiriqlar | Bajarish muddati | Hajmi (soatda) |
| 1 | Fanalar turlari | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga | 1-2 haftalar | 4 |

| | | | | |
|----------|---|--|-----------------------|----------|
| | | javob berish topshiriqlarni bajarish | | |
| 2 | Yoqochlarni bo'yiga arralash usuli Birikmalarni rejalash | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 3-4 haftalar | 2 |
| 3 | Yog'ochga kuydirib ishlov berish turlari | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 5-6 haftalar | 4 |
| 4 | Yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 7-8 haftalar | 2 |
| 5 | Yog'ochlarga o'yish dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 9-10 haftalar | 4 |
| 6 | To'g'ri tirnoqli birikma tayorlashning texnologik xaritasini tuzish | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 11-12 haftalar | |
| 7 | Yogochga kuydirib ishlov berish | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 13-14 haftalar | |

| | | | | |
|--|--|--|-----------------------|-----------|
| 8 | Jo'va tayyorlashning texnologik xaritasini tuzish | Adabiyotlardan mavzuga oid axborotlarni konspekt qilish.Mavzu yuzasidan individual savollarga javob berish topshiriqlarni bajarish | 15-16 haftalar | |
| Mavzuninig nomi va mazmuni VIII-semestr | | | | |
| 1 | Yogochga kuydirib ishlov berishga ishlatiladigan materiallar va asboblari. rasm chazish. | | | 2 |
| 2 | Yogoch materiallariga pardozi berish va pardozi beruvchi asboblari | | | 2 |
| 3 | Yogochlarga lak bilan pardozi berishda uning strukturasi to'la bilan holda pardozi berish. | | | 2 |
| 4 | Lakli materiallar tavsifi va uni yuzaga surtish uslubi. | | | 2 |
| 5 | Duradgorlik polirovkasi va uni bajarish texnologiyasi | | | 2 |
| Jami | | | | 10 |
| Umumiy soat | | | | 34 |

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

O'quvchilar pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash;

oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari;

xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari; pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullari;

yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari;

xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash;

taklif etilgan echimlar asosida xonalarni jihozlash; shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari;

uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari; ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari; uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari; suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish;

qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar boyicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Birikmasiz to'g'ri burchak shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi.

Yog'och materiallarini rejalash, yo'nish, arralash, randalash. Ish usullarini o'rganish va malaka hosil qilish:

Birikmasi egri chiziq shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi Yog'och materiallarni o'yish va parmalash, pardoqlash (silliqlash).

Mix va burama mixlar yordamida oddiy birikma tayyorlash texnologiyasi

Elimlar yordamida murakkab birikma tayyorlash texnologiyasi

Burchakli murakkab bir tirnoqli birikmalarni tayyorlash texnologiyasi. Tirnoqli birikmalar tasnifi va texnologiyasi

Burchakli o'rtalik birikmalar tayyorlash texnologiyasi. Quloqcha va turumli o'rtalik birikmalar texnologiyasi.

Murakkab ko'p tirnoqli birikmalar tayyorlash texnologiyasi Burchakli ko'l tirnoqli birikmalar texnologiyasi va birlashtiriladigan birikmalar

Yog'ochlarga kuydirib ishlov berish texnologiyasi Yog'ochlarni kuydirib ishlov berishga ishlatiladigan materiallar va asboblari. rasm chizish.

Yog'och materiallariga pardoqlash berish va pardoqlovchi asboblari Yog'ochlarga lak bilan pardoqlash berishda uning strukturasi to'la bilgan holda pardoqlash. Lakli materiallar tavsifi va uni yuzaga surtish uslubi. Duradgorlik polirovkasi va uni bajarish texnologiyasi

Laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Yog'och materiallariga mexanik ishlov berish texnologiyasi

Yog'och materiallariga yumaloq arrali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga tasma arrali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga randalovchi (fugankalash) dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga reymusli (xatkashli) frezali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga parmalash va o'yish dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi

Tokarlik dastgohida yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi

Tokarlik dastgohlarida yogochga kuydirib ishlov berish

Yog'ochsozlik va mebelsozlik korxonalariga sayoxat

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish. tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismlarini o'zlashtirish. avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. masus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash. yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. talabaning o'quv-ilmiiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish.

faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

masofaviy (distantion) ta'lim.

Fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti

Uy-ro'zg'or asoslari fanini o'qitishda zamonaviy (xususan interfaol) metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalarni qo'llanilish nazarda tutiladi. Radioelektronika asoslari kursida plakatlardan, tarqatma materiallardan, kompyuterdan, har xil grafiklardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalanadi.

« Uy - ro'zg'or asoslari » fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

« Uy - ro'zg'or asoslari » fani bo'yicha reyting jadvallari, nazoratturi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan boyicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi.

Joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari boyicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli.

Oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli(fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir yoki ikki marta o'tkaziladi va shakli(yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

Yakuniy nazorat (Yan) – semestr yakunida muayyan fan boyicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'I bilan ichki nazorat va monitorig bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida Yanni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, Yan natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda Yan qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan boyicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

« Uy - ro'zg'or asoslari » fani boyicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari boyicha qoyidagicha taqsimlanadi:

Yan – 30 ball qolgan 70 ball esa J.N. – 35 ball va O.N. – 35 ball qilib taqsimlanadi.

| Ball | Baho | Talabaning bilim darajasi |
|--------|------------|---|
| 86-100 | A'lo | Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Bilish, aytib berish tasavurga ega bo'lish |
| 71-85 | Yaxshi | Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatni tushintirish. Bilish, aytib berish tasavurga ega bo'lish |
| 55-70 | Qoniqarli | Mohiyatni tushintirish. Bilish, aytib berish tasavurga ega bo'lish |
| 0-54 | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega bolmaslik. Bilmaslik |

Fan boyichasaralashballi 55 ballni tashkiletadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarining o'quv fani boyicha mustaqil ishi joriy oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan boyicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = \frac{V \cdot O}{100}$ buerda: V – semestrda fanga ajratilgan o'quv soati yuklamasi(soatlarda); O' - fan boyicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan boyicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy JN va oraliq ON nazaorat turlari boyicha 55 ball va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan boyicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qoyiladi.

Talabaning semestr davomida fan boyicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

OnvaYan turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **Yan** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

Jn va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari boyicha to'plagan ballari ushbu nazora t turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari boyicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, va akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan boyicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'I bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

| t/r | Ko'rsatkichlar | ONballari | | |
|-----------------|--|-----------|------|------|
| | | maks | 1-ON | 2-ON |
| 1 | Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi | 15 | 0-8 | 0-7 |
| 2 | Talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish | 10 | 0-5 | 0-5 |
| 3 | Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari boyicha | 10 | 0-5 | 0-5 |
| Jami ON ballari | | 35 | 0-18 | 0-17 |

Talabalar JNdand to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

| t/r | Ko'rsatkichlar | ON ballari | | | |
|-----------------|--|------------|------|------|--|
| | | maks | 1-JN | 2-JN | |
| 1 | Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirish darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati | 15 | 0-8 | 0-7 | |
| 2 | Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular boyicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirish darajasi. | 10 | 0-5 | 0-5 | |
| 3 | Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar | 10 | 0-5 | 0-5 | |
| Jami JN ballari | | 35 | 0-18 | 0-17 | |

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan boyicha yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

| t/r | Ko'rsatkichlar | Yakuniy nazorat ballari | |
|------|---------------------------------------|-------------------------|------------------------|
| | | Maks | O'zlashtirish oralig'i |
| 1 | Fan boyichayakuniy yozma ish nazorati | 6 | 0-30 |
| Jami | | 6 | 0-30 |

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan boyicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar boyicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-3 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov boyicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qoyilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat boyicha o'zlashtirish ballari hisoblanadi.

Mavzu 1: YURTIMIZ ME'MORCHILIGI TARIXI, XONA INTERER HAMDA JIXOZLASH DIZAYNI; SOHAGA OID YURTIMIZDA TARKIB TOPGAN ANA'NALAR HAMDA ZAMONAVIY TARAQQIYOT YO'NALISHLARI.

Reja:

Yurtimiz me'morchilik tarixi.

Xona intereri xamda jixozlash dizayni.

Zamonaviy taraqqiyot yunalishlari.

Юртимиз меъморчилиги тарихига оид қисқача маълумотлар

Me'morchilik keng ma'noda inson mehnatining muayyan sohasi sifatida juda qadim zamonlarda paydo bo'lib, kishilarning eng zarur turmush ehtiyojlar uni qondirishga qaratilgan edi. U insonning turli-tuman amaliy – foydali, ijtimoiy-siyosiy, moddiy, diniy va boshqa ehtiyojllarni qondira oladi. Me'morchilik jamiyatning amaliy-foydali ehtiyojlarini qondirishni o'zining zarur vazifasi va maqsadi qilib olgan.

Bundan 2000 yil avval qadimgi Rim me'mori Vitruviy ifodalab bergan « triada » yoki uchlik qoidasi shu kungacha o'z ahamiyatini saqlab qoldi. U me'morchilikda uchta asosiy element bo'lishi, ya'ni foydali, mustahkam va go'zal bo'lishi shart, degan edi. Bu uch yo'nalish musulmon SHarqi me'morchiligida ham ma'lum edi.

Bu haqda Abu Ali ibn Sino shunday deydi: « O'ziga yashash joyi tan-laydigan kishi, tuproqning qanday ekanligini va erning qanchalik baland past ekanligini, suvning tashqariga chiqishini va uning yuqori yoki past joylashganligini, shuningdek, qanday dengizlar, botqoqliklar, tog'lai va ruda konlari... qabriston vahokazo borligini bilish lozim ». Ibn Sinoning me'morchilikdagi bu « inson va muhit » nazariya-siga Mikelanjelo hamda Leonardo da Vinchilar ham keng to'xtalib o'tadi.

Abu Ali ibn Sino o'zining "Tibbiy risolalar" asarida: "Qaysi shahar tog' ustida joylashgan bo'lsa, u er sovuq bo'ladi, agar tog'lar tagida joylashgan bo'lsa, uning issiqligi bor" deb hukm qil. Agar shahar tog'ning janubiga joylashgan bo'lsa, unda issiq shamol esib turishi hukm qilinadi. Agar tog'lar shu shaharning janubida bo'lsa, shim-oliy shamolning sovug' unga ta'sir qiladi. Agar tog'lar

g'arb tomonda bo'lsa, u shaharning havosi og'ir bo'ladi. SHarq tomonda bo'lsa, toza bo'ladi" deb yozadi.

Me'morchilik kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lgan. Ibtidoiy odam tabiat kuchlaridan o'zini muhofaza qilish uchun zarurat tufayli oddiy boshpana va chaylalar qurgan. Asta-sekin u qurilayotgan binoning ko'rkam bo'lishiga ham e'tibor berib, go'zallik qonunlari asosida ijod eta boshlagan.

Me'morchilik (lat. architectura so'zidan olingan) – me'morlik san'ati inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog'liq alohida turidir. Me'morchilik-me'morlik san'ati tarixi, qonuniyatlari, nazariyasi binolarining turi va uslubi, kompozitsiyasi kabi qator masalalarni o'rganuvchi san'at sohasidir

Me'morchilik jamiyatning ijtimoiy-maishiy va g'oyaviy – badiiy ehtiyojlarga xizmat qiladi. Inson dahosi va mehnati bilan yaratilgan muhit – turli-tuman binolar, inshootlar, shahar va qishloqlar me'morchilik nomi bilan yuritiladi. Me'morchilik davr o'tishi bilan o'zgara borib, jamiyat taraqqiyotidagi tuzumlarning tub mohiyatini o'zida ifoda etadi. Me'morchilik asari amaliy xizmati bilan bir qatorda ma'lum g'oyaviy-badiiy mazmuni ham ifoda etadi.

Me'morchilik mahsuloti jamiyat moddiy madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadi va ayni vaqtda san'at asari sifatida ham namoyon bo'ladi. Me'morchilik quldorlik jamiyati davrida tez taraqqiy topdi. Jamiyatning sinfiy talabiga munosib uy-joy va jamoat binolari yaratildi. Me'morchilikning modiy-texnik va badiiy imkoniyatlari ham kengaydi. Qadimgi SHarqda (Misr, Mesopotamiya) piromida, zikkurat kabi ulkan diniy binolar majmuasi, shohona saroy va boshqa me'moriy inshootlar barpo qilindi

Me'morchilikning ba'zi amaliy va nazariy masalalari ishlab chiqildi. Qadimgi YUnonistonda binolarning maktab, stadion, teatr, ibodatxona, amfiteatr kabi turlari paydo bo'ldi. Ellinizm davriga kelib order tuzumi arxitektura tarixida keng va chuqur iz qoldirdi. Forum, Zafar darvozasi (Triumfal ark) kabi harbiy qudrat g'oyalarini namoyish etuvchi yangi inshootlar paydo bo'ladi.

Binolar bezagiga e'tibor ortdi. O'rta asr arxitekturasida (asosan G'arbiy ovro'pa mamlakatlarida) (X-XII asrlar) roman-me'morchilik uslubi, keyinroq (XII-XIV asrlar) gotika-me'morchilik uslubi alohida o'rin tutadi. Gotika uslubiga xos bo'lgan cho'ziq ravoqlardan iborat konstruksiyali binolar ichida ulug'vor ibodatxonalar diqqatga sazovor. Me'morchilik va san'at taraqqiyoti tarixida yorqin sahifa ochgan Uyg'onish davri – Renessans (XV asr oxiri, XVI asr boshlari) uslubi

negizini qadimgi davr klassik me'morchilik tamoyillarini yangi davr talablari asosida tiklash va rivojlantirish tashkil etadi.

Klassik qonunlarni uzviy rivojlantirish tamoyillari binolar kompozitsiyasida yaqqol ko`rinadi. XVI asr o`rtalarida binolar haddan tashqari bezakdor qilib quriladigan bo`ldi.

Movarounnahrda XV-XVI asrda Samarqandda va Hirotida me'morchilikning nodir namunalari yaratildi. Hashamatli jamoat binolari qad ko'tardi. SHohizinda majmuasidagi maqbaralar, SHahrisabzdagi Ko'kgumbaz, YAssidagi Ahmad YAssaviy maqbaralari shular jumlasidandir. O'rta Osiyo me'morchiligi va amaliy san'atida asriy an'analar takominlashtirildi. Bu me'moriy obidalarni muhandis-u me'morlari go'zallikning obektiv qonunlarini chuqur bilganlar va o'z ijodlarida davirning g'oyasi va ruhini bera olganlar. Ularning me'moriy uslubi, naqshi va o'ziga xos bo'yoqlar jilosi beqiyos va takrorlanmasdir.

Qadimgi Toshkent taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridagi tuzilishi va planlashtirilishi ko'p jihatdan bizga noaniq. Ehtimol, shahar aholisi o'troq erlarda, sharqdan g'arb va janubga qarab ketgan katta karvon yo'li bo'yida joylashganligi uchun ham siyosiy vaziyat va harbiy to'qnashuvlar tufayli o'z o'rnini o'zgartirib turgandir. U davrlarda bir joyda gurkirab turgan shahar xarobaga aylanishi va biroz narida qayta bunyod bo'lishi tabiiy edi. Bunga ma'lum darajada shaharning kuchli seysmik zonada joylashganligi ham sabab bo'lgan. Arxeologik qazishlar natijasida turli tepalar (bag'rida aholi yashaganligidan darak beradigan xarobalar) ochildi.

Bulardan eng muhimlari – Jo'n arig'i bo'yidagi *SHoshtepa* va Salor arig'i bo'yidagi *Mingo'rik* xarobalaridir. Ulardagi inshootlar, asosan, xom g'isht va paxsadan qurilgan. 5–7-asrlar arxeologik yodgorliklari orasida *YUnusobod Oqtepsi* alohida e'tiborga loyiq. Ikki qavatli qo'rg'onning atrofi qalin paxsa devor bilan o'ralgan, ravoqli. Qo'rg'onning doira va to'g'ri to'rburchak tarhli xonalari bo'lgan. Qo'rg'on tarkibida O'rta Osiyo me'morligidagi dastlabki namunalardan hisoblangan gumbazli xona – otashparastlarning ibodatxonasi bor. SHahar me'morligi aholi tabaqalanishini yaqqol aks ettirgan

Qo'rg'onnda shahar hukmdorlari yashagan bo'lsa, uning chekkalaridan boshlanib, istehkom devorigacha tutashgan, tashqi ko'rinishi oddiy, past-baland uylarda hunarmandlar, dehqonlar yashagan. Rivojlangan zamindorlik davriga kelib, shahar shimoli g'arbg'a qarab, Jangob arig'i bo'ylariga ko'chgan (q. *Binkat*). 10–12-asrda bu shahar qurilishida qismlarga ajralish yaqqol sezilgan. U, asosan, 4 qismdan – ark (O'rda), shahriston (ichki shahar) va qo'sh (ichki hamda tashqi) raboddan iborat bo'lgan. Arkdan hokim saroyi va boshqa ma'muriy binolar o'rin olgan.

SHahristonda binolar ancha zich joylashgan. Markaziy CHorsu bozori va Registon maydoni shahristonga tutash bo‘lgan.

Savdo-sotiq do‘konlari, hunarmandchilik ustaxonalari, asosan, ichki raboddan o‘rin olgan. Tashqi rabodda turar joy, imoratlar oz, bog‘-rog‘lar ko‘p bo‘lib, shaharni meva-cheva, sabzavot bilan ta‘minlagan. SHaharning qismlari mustahkam paxsa devor bilan o‘ralgan (umumiy devorga ega bo‘lgan va yonma-yon joylashgan ark bilan shahriston bundan mustasno), devorlarga darvozalar qurilgan. Darvozalardan shahriston markaziga tomon ketgan yo‘l shaharning kelgusidagi tarhiga aniqlik kiritgan.

Toshkent CHirchiq daryosi bo‘yidagi boshqa shaharlar va qishloqlar bilan yaxlit shaharsozlik tizimini tashkil qilgan. Voha mudofaa devori (*Kanpirdevor*) bilan muhofaza qilingan. Mo‘g‘ullar istilosi (1220 yil) shaharga katta talafot keltirdi. 13-asrda Toshkentda yirik qurilishlar deyarli olib borilmagan. SHu davr inshootlaridan Ko‘kchadagi *SHayx Zayniddinbobobo maqbarasi* bizgacha etib kelgan

14-asr oxiri – 15-asrga kelib Toshkentning qo‘rg‘on devori tiklangan. SHahar ichida va atrofida me‘morlik haziralari paydo bo‘lgan, mahobatli inshootlar qurilgan. Zangiota qishlog‘idagi Zangiota va Anbaribibi maqbaralari, Eski shahardagi Jome masjidi, Pushti hammom, SHayx Xovandi Tohur maqbarasi, YUnusxon xonaqohi shular jumlasidandir. SHahristondagi ko‘p qurilishlar Xoja Ahror Valiy nomi bilan bog‘liq. Xususan, uning homiyligida qurilgan (1451) Xoja Ahror masjidi va madrasasi shaharda juda mashhur bo‘lgan

16-asr Movarounnahrda Toshkent mavqei o‘sib, koshinkor binolar qurila boshlagan: CHorsudagi *Ko‘kaldosh madrasasi*, Hasti Imomdagi *Qaffol SHoshiy maqbarasi* va *Baroqxon madrasasi*, Qoratoshdagi hammom va boshqalar. 17-asr va undan keyingi asrlarda qurilgan yodgorliklar qatoriga Qorasaroydagi Ibrohimota maqbarasi, CHilonzordagi Xayrobod maqbarasi va masjidi, Beshyog‘och ko‘chasidagi Baland masjidi va madrasasi, «Istiqlol» san‘at saroyi oldidagi *Abulqosim madrasasi*, Hazrati Imomdagi Mo‘yi muborak madrasasi, Tilla shayx masjidi, shuningdek, «YAlangqar», «Oxunguzar», «Kallaxona» mahallalarining yirik masjidleri kiradi.

18-asr 1-yarmida Toshkentning ikki qo‘rg‘on devori ichki hamda tashqi qismlarini o‘rab turgan; 40 ga yaqin jome va juda ko‘p mahalla masjidleri bo‘lgan. Registon maydonida xarsang tosh bilan qoplangan, tomonlari 20 m li hovuz qurilgan, uning chetlarida daraxtlar o‘sgan. YUnusxo‘ja Toshkentda chorhokimlikka barham berib, shahar dahalarini birlashtirgach (80-yil o‘rtalari) nurab qolgan qo‘rg‘on devorlari

qayta tiklandi. Hokim YUNUSHO'JANING qarorgohi Qoratoshdan bo'lgan (Eski O'rda).

19-asrning 1-yarmida Toshkent har tarafga, ayniqsa sharqqa qarab kengaygan. Anhorning aholi kelib o'rnashgan chap sohili YANGI mahalla yoki YANGI shahar deb atalgan. O'sha asr boshida Anhorning chap sohilida (hozirgi «Anhor» kafesining sharqiy tomonida) YANGI O'rda qurildi. O'rdaning janubi-g'arbiy burchagi turtib chiqqan to'g'ri to'rtburchak shaklida (sharqiy devori – 540 m, janubiysi – 490 m) bo'lgan. Ichida beklarbegi saroyi, sarbozlar maydoni, boshqa binolar joylashgan. O'rda aholisi Fadir arig'idan suv ichgan, talaygina hovuzlari bo'lgan.

Darvozalardan boshlanadigan ko'chalar nisbatan to'g'ri va katta bo'lib, shahar ichkarisida asosiy markazi (CHORSU) bilan bog'lansa, tashqarisida boshqa shahar va qishloqlarga olib boruvchi yo'l sifatida davom etgan. CHORSU va O'rdani (narida Qashg'ar darvozasi bilan ham) birlashtiruvchi ko'cha alohida ahamiyatli bo'lib, Katta ko'cha (keyinchalik Toshko'cha) deb atalgan. Asosiy ko'chalarga tutashgan boshqa ko'chalar tor va egri-bugri bo'lgan. 1909 yil ma'lumotiga ko'ra, ko'chalarning umumiy uzunligi 1343 km ga etgan.

19-asr o'rtasida Toshkent qo'rg'on devorining balandligi 8 metr ga etgan; tepasida ikki otliq bemaol yonma-yon yura olgan; boru va burj kabi muhofaza inshootlari bo'lgan. Devor shimolda Kaykovus arig'iga yaqin joydan, sharqda SHibli arig'ining o'ng sohili, janubi-sharqda Bo'rijar arig'ining yuqori qismi bo'ylab, janubda Zax arig'ining shimolidan o'tgan. SHahar atrofidagi mavzellar bilan bog'lanish uchun qo'rg'on devorida katta (darvoza) va kichikroq (qopqa) eshiklar bo'lgan. Darvozalar 12 ta, qopqalar soni esa aniq emas.

«CHORSU» bozori nafaqat savdo, balki hunarmandchilik markazi ham bo'lgan. Tomoshalar va bayram kunlari tungi bozor (*bozorshab*) o'tkazilgan. Bir xil mollar bilan savdo qiluvchi bozorcha maydoni alohida joy olgan. Hunarmandlar rastasi ham maxsus joylarni egallagan. 20-asr boshlarida allofliq, g'allabozor, arpabozor, bedabozor, somonbozor, bordonbozor, gilambozor, kigizbozor, namatbozor, ko'rpabozor, kattabozor, ko'mirsaroy, kulolbozor, tovoqbozor, ko'chatbozor, mevabozor, nonguzar, sabzavot kabi bozorcha-maydonlar hamda bazzozlik, chitfurushlik, beshikchilik, vassabozor, dukchilik, zargarlik, ko'nchilik, romsozlik, sovungarlik, sarrojlik, sahhoflik, tunukachilik, etikdo'zlik, misgarlik, charxchilik kabi jami 40 ga yaqin hunarmandchilik rastalari bo'lgan.

Rastalarning ba'zilari usti berk (tomi avval tuproq, keyin tunuka) timda joylashgan. Tim yozda soya-salqin bo'lgan. Qor-yomg'irda loygarchilikdan

asragan. Do'konlar, odatda, oldi ko'tarib qo'yiladigan ravonli sinchkor katalak xonada bo'lib, ularning umumiy soni 4,5 mingga etgan. Bozorda CHorsu arig'ining yaqinida usti tomli Dukkosha (Ukkosha) bulog'i, uning oldida Badalmat hammomi (hozirgi «CHorsu» mehmonxonasi o'rnida) bo'lgan. Bozordagi boshqa hammomlar [Pushti hammom – erlar uchun, Mahsido'zlik ko'chasida; xotin-qizlar uchun alohida bo'lgan, saqlanmagan (hozirgi Bolalar ijodiyoti markazi orqa qismida)] ham o'ziga xos uslubda qurilgan. Bozor ichida va atrofida bir qanchakarvonsaroylar mavjud edi. SHahar qadimdan *Ko'kcha*, *Sebzor*, *SHayxontohur* va *Beshyog'och* dahalariga bo'lingan. 20-asr boshlarida Toshkent tarkibiga 280 ga yaqin mahalla, 170 ga yaqin mavze kirgan.

Xalq me'morligida paxsa, guvala, xom g'isht va yapaloq pishiq g'isht qo'llangan. 19-asrning so'nggi choragidan to'g'ri to'rtburchak yuzli (salloti) g'isht, fanera, tunuka, oyna kabi qurilish materiallaridan foydalanilgan. Sinchkor konstruksiyalar keng tarqalgan. Ravoq, toqi, gumbazlar ko'proq madrasa, masjid, maqbara, hammom kabi binolarda qo'llangan. Bezak sifatida rangdor naqsh, ganch va yog'och o'ymakorligidan foydalanilgan. Toshkent amaliy san'atining o'ziga xos xususiyatlari T.*Arslonqulov*, A.*Boltaev*, S.*Xo'jaev* kabi xalq ustalari ijodida aks etgan. Aholi yashaydigan uylar bir-biridan farq qilgan. Kambag'allarniki sodda va kichik, boylarniki ko'p xonali, naqshinkor bo'lgan. Uylar, asosan, 2 xona, dahliz va ayvondan tashkil topgan. Aksari tashqari va ichkari hovlilardan iborat bo'lgan. Hovli sahnida supa bo'lib, tok, tut, o'rik, olma kabi mevali daraxtlar ekilgan. Deyarli har bir hovlidan ariq o'tkazilib, undan suv ichilgan, ekinlar sug'orilgan. Toshkentda usti yopiq hovlilar ham keng tarqalgan. Badavlat kishilarning uylari ikki qavatli bo'lgan. SHahar devoridan tashqaridagi dala hovli (qo'rg'on)larning muhofazasiga alohida e'tibor berilgan. Devorlari paxsadan urilib, ba'zan guldasta (devorga tutash minorasimon element)lar bilan bezalgan. Qo'rg'on uylarda ayvonlar ko'proq o'rin olgan.

Ўзбекистон тарихан илм-фан, маърифат, санъат, маданият ва маънавият барқ уриб гуллаган замин бўлган, унда жаҳоннинг Буюк зотлари Зардушт, Абдулла ал-Бухорий, Ат-Термизий, Аҳмад Яссавий, Мусо Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Наср Фаробий, Абу Райҳон Беруний, Ибн Сино, Муҳаммад Тарағай Улуғбек, Алишер Навоий кабилар туғилиб, яшаб, ижод этиб, келажак авлодлар учун фахрланишга арзигулик илмий ва маданий мерос қолдириб кетганлар. Бобокалонларимиз Кўхна Ургенч, Афросиёб, Кат, Варахша, Ахсикат, Ўтзор, Янгикат каби ғоят гўзал шаҳарлар бунёд этганлар ҳамда hozirgi кундаги Самарқанд, Бухоро, Фарғона, Тошкент, Хева, Қўқон, Косон, Термез каби қадимий шаҳарларни

мерос қилиб қолдирганлар. Ўзбекистон мустақилликка эришгач миллий меъморчилик ва миллий шаҳарсозлик санъати ривожига ҳам катта йўл очилди. Ҳар бир халқни ва мамлакатни миллий анъаналарини намойиш этишда меъморчилик ва шаҳарсозлик алоҳида аҳамият касб этади. Чунки, ҳар бир миллатни, халқни ва давлатни маданияти, маънавияти ва анъанавий урф-одатларини, илми-тафаккурини намойиш этишда унинг санъати ва меъморчилиги алоҳида аҳамият касб этади. Шунга кўра мустақилликни дастлабки йиллариданоқ мамлакатимизда меъморчилик ва шаҳарсозлик санъатига алоҳида эътибор бериб келинмоқда. Ўзбекистон тарихан илм-фан, маърифат, санъат, маданият ва маънавият барқ уриб гуллаган замин бўлган, унда жаҳоннинг Буюк зотлари Зардушт, Абдулла ал-Бухорий, Ат-Термизий, Аҳмад Яссавий, Мусо Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Наср Фаробий, Абу Райҳон

Беруний, Ибн Сино, Муҳаммад Тарағай Улуғбек, Алишер Навоий кабилар туғилиб, яшаб, ижод этиб, келажак авлодлар учун фахрланишга арзигулик илмий ва маданий мерос қолдириб кетганлар. Бобокалонларимиз Кўхна Ургенч, Афросиёб, Кат, Варахша, Ахсикат, Ўтрор, Янгикат каби ғоят гўзал шаҳарлар бунёд этганлар ҳамда хозирги кундаги Самарқанд, Бухоро, Фарғона, Тошкент, Хева, Қўқон, Косон, Термез каби қадимий шаҳарларни мерос қилиб қолдирганлар. Ўзбекистон мустақилликка эришгач миллий меъморчилик ва миллий шаҳарсозлик санъати ривожига ҳам катта йўл очилди. Ҳар бир халқни ва мамлакатни миллий анъаналарини намойиш этишда меъморчилик ва шаҳарсозлик алоҳида аҳамият касб этади. Чунки, ҳар бир миллатни, халқни ва давлатни маданияти, маънавияти ва анъанавий урф-одатларини, илми-тафаккурини намойиш этишда унинг санъати ва меъморчилиги алоҳида аҳамият касб этади. Шунга кўра мустақилликни дастлабки йиллариданоқ мамлакатимизда меъморчилик ва шаҳарсозлик санъатига алоҳида эътибор бериб келинмоқда.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo va Buyuk Ipak yo'lining qoq markazidagi keng hududda joylashgan. Markaziy Osiyo aholisi 57 mln kishidan ziyod bo'lib, uning 27 mln dan ko'prog'i mintaqaning aholi juda zich joylashgan mamlakati va eng katta iste'mol bozori hisoblangan O'zbekistonda istiqomat qiladi.

O'zbekiston o'rmonsiz davlatlar jumlasiga kiradi. Mamlakatda (mebel sanoati uchun asosiy xomashyo hisoblangan) yog'och ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan bo'lsada, mustaqillikka erishilgunga qadar uning hududida ushbu sohaning 30 dan ortiq yirik va o'rta korxonasi faoliyat ko'rsatgan. Ularning asosiy resurs bazasi bo'lib Rossiya, Belarus va Ukrainaning yog'ochga ishlov beruvchi korxonalari hisoblanardi.

Mustaqillikka erishilgach va ishlab chiqarish kooperatsiyasida yuz bergan vaqtinchalik uzilishlar chog'ida mamlakatimiz mebel sanoati, birinchi navbatda,

zarur resurslar va texnologik jihozlar borasida muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Shunga qaramay, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan ayrim qarorlar natijasida mazkur tarmoqni nafaqat saqlab qolishga, balki uni rivojlantirishga ham erishildi.

Respublikamiz aholisi sonining doimiy ravishda o'sib borishi, uning iste'mol qobiliyatining ortishi, yangi turarjoy obyektlari va ijtimoiymadaniy hamda maishiy yo'nalishdagi obyektlarning foydalanishga topshirilishi mebel va yog'ochsozlik mahsulotiga bo'lgan talabni oshirdi.

O'zbekistonning mebel va yog'ochga ishlov berish sanoati eng jadal ri-vojlantirib borayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Agar bundan 7-8 yil ilgari mamlakatning ichki bozori 65-70 foizga xorijiy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari bilan to'ldirilgan bo'lsa, bugungi kunda bozor sig'imini 70-75 foizi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli mahsulot hisobidan qondirilmoqda.

Tarmoqni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash davlat dasturlari, mahalliyashtirish dasturi, xorijiy investitsiyalarning faol jalb qilinishi, ishlab chiqarish raqobatbardoshligining ortishi, mamlakat hukumati tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun berilayotgan ko'plab imtiyozlar va preferensiyalar ushbu ko'rsatkichning o'sishiga katta yordam ko'rsatyapti.

Yangi texnologiyalarning joriy etilishi, improt qilingan butlovchi qismlar asosida yig'iladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi mebel sanoatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Mebel ishlab chiqarish hajmining o'sishi furnitura, jihozlar, mebel ishlab chiqarish uchun xomashyoni import qilish hajmining o'sishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda respublikamizdagi uskunalar va mashinalarning 80 foiziga yaqini, mebel ishlab chiqarish uchun butlovchi qismlarning 90 foizigacha chetdan keltiriladi. Bularning barchasi mamlakatimiz mebel ishlab chiqaruvchilari uchun yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va butlovchi qismlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish yo'nalishida keng imkoniyatlarni ochib beradi.

«MEBEL» QK OAJning tarixan bosib o'tgan yo'li — uning tarmoqda eng yetakchi korxonalaridan biri bo'lib kelganligini ko'rsatadi. Boshqa korxonalar tor sohaga ixtisoslashgan bo'lib, o'z e'tiborini alohida assortiment yo'nalishlariga — kimdir yotoqxona to'plamlari ishlab chiqarishga, kimdir yumshoq mebel ishlab chiqarishga, yana kimdir oshxona mebeli ishlab chiqarishga qaratgan bir sharoitda,

bizning kor-xona hamma vaqt nafaqat hukumatning maxsus buyurtmalarini bajaradi, balki keng iste'mol bozorini turli xildagi mebel mahsulotlari bilan to'ldirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda «MEBEL» QK OAJ — bu istalgan mahsulotni ishlab chiqarishga oson moslashtirish va haqiqiy sifatli mahsulotni ishlab chiqarish imkonini beruvchi yuksak texnologiyalar, yangi yuqori unumli uskunalar bilan jihozlangan O'zbekiston-Britaniya qo'shma korxonasi.

«MEBEL» QK OAJ boshqaruv apparatida strategik, tashkiliy, boshqaruv va ishlab chiqarish menejmenti masalalarini hal etish imkonini beruvchi yuqori kasbiy salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislar jam bo'lishgan. Ishlab chiqarish samaradorligi va korxonada faoliyatini tezkor boshqarish mexanizmiga rahbarlik ishini tatbiq qilishda avtomatlashtirilgan axborot tizimidan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Korxonamizda ishlab chiqarilayotgan mebelning sifati va dizaynining beta-krorligi bugungi kunda unga mamlakatimiz bozorida yetakchi mavqelardan birini egallab turish imkonini bermoqda.

Korxonamiz buyurtmachilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, yakka loyihalar bo'yicha mebelni joy-joyiga qo'yishni amalga oshiruvchi dizaynerlar guruhiga ega. Mijozlar ham dizaynerlar bilan birgalikda bevosita o'z uyi (xonasi) va interyeri uchun eksklyuziv to'plamni ishlab chiqishda ishtirok etishlari mumkin.

Korxonamizda mebelni konstruksiyalash axborot dasturlarining qo'llanishi dizaynerlarga buyurtmachilar ehtiyojlariga qarab turli dizayn, konstruksiya va rangdagi mebelni (masalan - mehmonxona, yotoqxona, bolalar xonasi, oshxona, ofislar, o'quv sinflari, konferens zallari, qahvaxonalar, restoranlar va hokazolar uchun) tezkor ishlab chiqish hamda uni mijozlar e'tiboriga havola etish imkonini beradi. Bunda dasturning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mijoz dizayner bilan birgalikda o'z didiga qarab quyidagi mezonlarni tanlash jarayonida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi:

Mebel ishlab chiqarishdan tashqari, sheriklarimiz bilan birgalikda laminatsiyalangan plitalar, laminatsiyalangan MDF, turli konfiguratsiyadagi eshiklar ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Korxonamizda yetakchi xorijiy ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy uskunalari o'rnatilgan bo'lib, bu yuqori bosimda zichlangan DVPdan laminatsiyalangan pol qoplamalari, mamlakatimiz bozorida xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini bermoqda, shuningdek, bu yerda

pol qoplamalarini to'shshda foydalaniladigan penopolietilen (sintepon) ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan.

Yuqori bosimda zichlangan DVPdan tayyorlanadigan laminatsiyalangan pol qoplamalari haqida qo'shimcha ravishda quyidagilarni aytish mumkin:

Bugungi kunda laminatsiyalangan pollar bozori asosan import tovar-lari bilan to'lib-toshgan.

O'zbekistonda laminatsiyalangan pollarni ishlab chiqarish liniyasining ishga tushirilishi import hajmini qisqartirish va aholini mamlaka-timizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli mahsulot bilan ta'min-lash imkonini beradi. Loyihaning ishlab chiqarish quvvati bir yil-da 360 ming m² ni tashkil qiladi va yaqin istiqbolda uni 1 mln m² gacha yetkazish imkoniyati mavjud.

Laminatsiyalangan pol qoplamalari ko'plab ustunlikka ega bo'lgani, shu jumladan, kovrolan, linole-um va yog'och pol kabi boshqa pol qoplamalari bilan solishtirilganda narxi aholining keng qatlamlari, korxonalar va tashki-lotlar uchun qulayligi bois, ularga bo'lgan ehtiyojning keskin o'sishi ushbu turdagi mahsulotni ishlab chiqarish loyihasini amalga oshi-rishga turtki berdi.

Shunday qilib, zavodimiz O'zbe-kistonda eng yuqori talablarga ja-vob beruvchi laminatsiyalangan pol qoplamalarini ishlab chiqarishning qaldirg'ochi hisoblanadi, korxonalar uskunalarining quvvati esa respublikamiz bozorida iste'molchilarning keng doirasini ushbu mahsulot bilan ta'minlash imkonini beradi.

Yevropa tasniflash meyorlaridan kelib chiqib, korxonamizda ishlab chiqarilayotgan laminatsiyalangan pol foydalanishning 32- va 33-toifasiga kiradi, ya'ni qoplama yuzasiga yuqori darajada yuk tushadigan jamoat joylarida qo'llanishi mumkin.

Yaqin kelajakda yumshoq mebel, shuningdek, natural yog'ochdan korpus mebel va deraza romlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Hozirgi vaqtda respublikamiz aholisi talablarini yanada to'liq o'rganish va qondirish maqsadida korxonalar tomonidan poytaxtimizning aholi zich joylashgan tumanlarida, keyinchalik viloyatlar markazlarida firma do'konlari ochish orqali savdo-marketing tarmog'ini tashkil etish borasida faol ishlar olib borilmoqda.

Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, mamlakatimiz aholisining sifatli, zamonaviy mebelga bo'lgan talabi yil sayin o'sib bormoqda.

Mebel bizning hayot kechirish uslubimizni va turmush darajamizni belgilab berishi, ichki dunyomizni aks ettirishi bilan birga, uyimizni shinam va obod qiladi, unda betakror iliqlik va qulaylik muhitini yaratadi.

Mebel sanoatini respublikamizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining bayroqdorlaridan biri deb hisoblash mumkin, zero, mamlakatimizda xususiylashtirish aynan mebel sanoati korxonalaridan boshlangan edi.

Mebel va unga butlovchi qismlar ishlab chiqarish hamda yog'ochga ishlov berishga ixtisoslashgan «Fayz» xolding kompaniyasi mazkur tarmoqning yetak-chi korxonalaridan biri hisoblanadi. Kompaniya 25 ta korxonani o'z tarki-biga birlashtirgan bo'lib, ularning 9 tasi Jahon banki, Vengriya, Malay-ziya, Germaniya, BAA, Sloveniya, Italiya, Janubiy Koreya kabi xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalardir. Kompaniya o'ttiz yillik rivoj-lanish tarixiga ega. U Germaniya-ning yog'ochga ishlov berish uskunala-ri bilan jihozlangan bo'lib, ishlab chiqarilayotgan mebel mahsuloti o'zining sifat xususiyatlariga ko'ra jahon andozalariga mos keladi va ISO 9001-2000 xalqaro sifat sertifikatiga ega. Respublikamizda mebel ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi jami 400 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shulardan 200 taga yaqini so'nggi 3-4 yil ichida tashkil etildi. Mebel, furnituralar va ularga butlovchi qismlar ishlab chiqarish bilan band bo'lgan korxonalarining katta qismi ishlab chiqarilayotgan mebelning talab darajasidagi sifati, di-zayni, raqobatbardoshligini ta'min-lay olmaydigan texnologiya bo'yicha jihozlangan kichik korxonalardir.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, ichki bozorni is-te'mol tovarlari bilan to'ldirish va mebel hamda yog'ochga ishlov berish sa-noatining eksport salohiyatini yanada kuchaytirish lozim. Mebel mahsulotlarining mahalliy bozorini kengroq egallash, eksport salohiyatini yanada oshirish uchun mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, eng yangi texnologiyalarni joriy etish, assortimentni kengaytirish va ishlab chiqarilayotgan mebelning sifatini yaxshilash ishlarini davom ettirishlari zarur.

Mavzu 2: XONA VA FANLAR BO‘YICHA O‘QUV KABINETLARIDA MEBEL VA QUSHIMCHA JIXOZLARNI JOYLASHTIRISH SXEMATIK TASVIRI HAMDA ESKIZLARNI TAYYORLASH;

Reja:

- 1. Xona intereri hamda jihozlanishi.*
- 2. Eskizlar ustida ishlash.*
- 3. Mebel va qushimcha jihozlarni joylashtirish.*

Ichki (Frantsiya intérieur <ichki Lot - .. ichki, tashqi ziddi) - me'moriy va inson estetik idrok va qulay yashash sharoitlarini ta'minlash, binoning ichki bezatish; binoning ichki maydoni yoki alohida xonasi, me'moriy echimi uning funksional maqsadlari bilan belgilanadi.

Interer dizayni yaxlit estetik mukammal shaklda inson mavjudligining sharoitini yaxshilashga qaratilgan pragmatik va badiiy g'oya va echimlarni sintez asoslangan.

Ichki qism uch qismdan iborat:

- konstruktsiyani qurish - zamin, devorlar, ship;
- mavzu (jihozlar, mebellar);
- makon va hissiy-psixologik muhitni shakllantiradigan funksional jarayon.

Xona intererini bezatish

Bezak san'atning binoni bezatishga xizmat qiladigan asosiy yo'nalishlari - o'quv xonalarini, sport va majlislar zallarini, koridorlarni bezash, ko'rgazmalar tashkil etish, maktab teatri uchun dekoratsiya ishlash, dekorativ – amaliy san'at buyumlari yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va hokazolardan iboratdir.

Har qanday metodik vazifa singari badiiy bezash ishlari ham professional aniqlikka va ijodiy yondashishga asoslanishi kerak.

Professional o'quvchining badiiy izlanishini to'G'ri va konstruktiv yo'nalishga solsa, ijodiy yondashish, etuk badiiy xulosalar chiqarishga olib boradi.

Intererni badiiy bezashda dekorativ-amaliy san'atning yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, dekorativ haykaltaroshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshqa turlaridan foydalaniladi.

Badiiy bezash ishlarida amaliy bezak san'atining ana shu turlarini qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad-ta'lim va tarbiya maskani bo'lmish o'quv yurti intererining o'ziga xos xususiyatlarini to'laroq yoritishdan, o'quvchilarda bu san'atga qiziqish

uyg'otishdan va amaliy bezak san'at sirlarini o'quvchilar uchun yanada yaqinroq va tushunarliroq qilishdan iboratdir.

Tavsviriy san'atning barcha turlari kabi badiiy bezash ishlari ham kompozitsiyaning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Kompozitsiya lotincha "kompositie" so'zidan olinib, to'qish, tuzish, joylashtirish, alohida qismlarni butun qilib birlashtirishni anglatadi.

Badiiy bezash san'atida bajarilayotgan ishlarning ta'sirchanligini oshirish ba'zan kompozitsiyaning ma'lum qoidalarini buzish ham mumkin.

Ko'pincha badiiy bezak ishlarida qo'llanayotgan yangi, ilgari ishlatilmagan materiallardan foydalanishda ma'lum originallikka erishish maqsadida shunday qilinadi.

Badiiy bezak ishlarida kompozitsiyaning asosan uchta: tekis, xajmli, kenglik va chuqurlikka ega bo'lgan turlari mavjud.

Bularning barchasi u yoki bu G'oyani amalga oshirishda, qanadidir bir umumiy sifat va belgilarga ega bo'ladi.

Gorizontal kompozitsiya – bunda kompozitsiya elementlarini gorizontal yuzaga joylashtiriladi, masalan, dala, shahar ponoramasi va boshqalar.

Vertikal kompozitsiya aktiv, dinamik kompozitsiya bo'lib, yuqoriga o'sish, parvoz tasavvurini hosil qiladi; uning detallari asosan tik chiziq bo'yicha joylashadi.

Diogonal kompozitsiya – uning qurilishi dinamik va shiddatli sxemalarga asoslanadi.


Uchburchak yoki piramidal kompozitsiya - bunda turg'un osoyishta holatga tayaniladi. Surat yuzasining pastki qismi piramidaning negizi hisoblanadi.

Agar kompozitsiya elementlari tomonlarida bir-biriga nisbatan bir xil joylashsa, ular kompozitsion muvozanatda bo'ladi. Dizayn inglizcha so'z bo'lib "rasm chizish" degan ma'noni bildiradi. Dizayn – badiiy go'zal konstruksiya deganidir.

Gullar va boshqa dekorativ o'simliklar intererining istalgan joyidavestibyul, rekreatsiya, oshxona, sinf xonalari va hokazolarda bo'lishi mumkin.

Ularni joylashtirish masalasi qavatlarining umumiy kompozitsiyasida ham, intererining ayrim joylarida ham funksional, biologik va estetik talablardan kelib chiqib hal qilinadi.

Ishlash vaqtida asboblari va zagotovkani dastgoh ustiga ulardan foydalanish qulay holda joylashtirish lozim. O'ng qo'l bilan ushlanadigan asboblari o'ng tomonda va chap qo'l bilan ushlanadigan asboblari chap tomonda turishi kerak. Agar ish o'rni to'g'ri tashkil etilsa, vaqt tejiladi, mehnatning unumdorligi va sifati ortadi. Dastgoh ustiga faqat mazkur dars uchun kerakli asboblari qo'yiladi. Ish tamomlangach hamma asboblari, zagotovkalar, chizmalar, tayyorlangan buyumlar yig'ishtiriladi, qipiqalar cho'tkabilan yahshilab sidiriladi. Har bir ish o'rni, chilangarlik dastgohi kerakli asboblari va moslamalar bilan jihozlanishi lozim. Bular yirik va mayda tishli egovlar, chilangarlik bolg'asi, kerner(uchi konussimon qilib o'tkirlangan sterjen shaklida bo'lib, zagotovkada chiziqcha ustidan nuqtali belgilar, chuqurchalar o'yib rejalash uchun ishlatiladi), chizg'ich, masshtabli chizg'ich, 90° burchakli go'niya, to'qmoq va hokazolardan iboratdir. Dastgohda metallarni to'g'rilash va bukish uchun plitka ham bo'lishi zarur. Himoya to'ridan faqat metallarni kesish operatsiyalarida foydalanish lozim. Chizmalar va buyumni tayyorlashning texnologik kartasini qo'yish uchun ko'targich taglik ham bo'lishi kerak. Chilangarlik dastgohi O'quv ustahonalarida metallarga qo'lda ishlov berish chilangarlik dastgohida amalga oshiriladi. Ular turli hil konstruksiyada bo'lishi mumkin (4-rasm).



4-rasm. Dastgohlar: a) chilangarlik; b) kombinatsiyalashgan.

Ularning har birida quyidagi qismlari mavjud bo'ladi: stolning usti qopqog'i, qopqoqqa mahkamlangan chilangarlik tiskisi va himoya to'ri. Chilangarlik tiskisi detallarni yig'ish yoki ularga ishlov berishda ularni mahkam qisish va ushlab turishga mo'ljallangan. Tiskining dastasi aylantirilganda yurish vinti buralib gaykaga kiradi yoki undan chiqadi va qo'zg'aluvchi jag'ni u yoq-bu yoqqa suradi. Zagotovkani ishonchli mahkamlash uchun jag'lar yuzasiga bo'rtiqlar qilingan (5-rasm). Dastgohning balandligi o'quvchining bo'yiga mosbo'lishi kerak. Buning uchun o'quvchi dastgoh yonida turib o'ng qo'lini 90° bukishi lozim. Shunda uning

tirsagitiskining yuqori qismiga tegibtursa, dastgohning balandligi to'g'ri tanlangan bo'ladi (6-rasm). Dastgohning balandligi o'quvchining bo'yiga mos bo'lmasa, u ishlayotganida tez charchab qoladi va ishiningsifati ham past bo'ladi. O'lchash va rejalash asboblari Yasaladigan detalning chizmadagi shakli va o'lchamlarini rejalash asboblari yordamida zagotovkaga ko'chirishdan iborat chilangarlik operatsiyasi rejalash deyiladi. Yupqa listli metallarni rejalashda quyidagi asboblardan foydalaniladi: chilangarlik bolg'asi, kerner, chizg'ich, masshtabli chizg'ich, 90° li burchaklik, rejalash sirkuli (7-rasm). Chilangarlik ustahonasidagi ichki tartib qoidalar: O'quv ustahonasidagi mashg'ulotga barvaqtroq kelib, darsga tayyorgarlik ko'riladi.

Mashg'ulotga albatta mahsus kiyimda kelish kerak.

Mashg'ulot boshlanishidan oldin kundalikni o'qituvchining stoliga, ish daftari va boshqa kerakli narsalarni dastgoh planshetiga qo'yiladi.

O'qituvchi o'tilgan material bo'yicha so'rayotganida va yangi materialni

tushuntirayotganida diqqat-e'tibor bilan tinglash va faol bo'lish, mehnat intizomini buzmaslik kerak. Mashg'ulot tugagach, ish o'rinlarini yig'ishtirish, asboblarni topshirish va yakunlovchi instruktajga tayyorlanish kerak. Dastaki arra ba'zan yoydeb ham ataladigan ramka va ungamahkamlangan tishli yupqa po'lat polosadan iboratdir. Ramkalar bikr va ajraladigan bo'ladi. Ajraladigan ramka ancha qulaydir, chunki uning uzunligi har hil arra polotnolarini o'rnatish mumkin. Ramkaning bir uchida dasta va arra polotnosini o'rnatish uchun o'yi ochilgan qo'zg'almas sterjen ikkinchi uchida o'yi va quloqli gaykali tortish vinti bo'ladi va bu vint arra polotnosini taranglashga hizmat qiladi.

Metallni arralash jarayoni sortli prokatni arra yordamida bo'laklarga ajratishdan iborat chilangarlik operatsiyasidir. Freza (metal va metalmas materiallardan tayyorlanadigan buyumlar va zagotovkalarining shakldor yuzalariga ishlov berish, tish, rezba o'yish va hokazolarda ishlatiladigan ko'p tig'li kesuvchi asbob)lar mahkamlanish usuliga, shakliga, konstruksiyasi va tishlar yo'nalishiga qarab bo'linadi. Tish konstruksiyasiga qarab frezalar quyidagi turlarga bo'linadi: silindrsimon, diskli, uchli, bo'rtgan, pazli, qabariqli, burchakli, qirquvchi va boshqalar. Bizni buyumlar olami kurshab olgan, biz ulardan foydalanamiz ularning uz tassavurimiz va kizikishlarimiz doirasiga kiritamiz. Lekin bizning idrokimiz tanlovchan ekanligini xam e'tiborga olishimiz kerak, kup kishilar buyumlar estetikasiga befark karamaydilar va kuprok ularning foydasi pishikligi, mustaxkamligi, kulayligi va shu kabilar bilan kizikadilar. Xatto idrokli, guzallikki uch kishilar xam vakt utishi bilan buyumga befark, uni estetik kechinma ob'ekti

deb karamaydigan bulib koladilar Buyumga munosabat uning fakat obektiv sifatlariga emas, balki bizning ichki kechinmamizga, moyilligimizga xam boglikdir. Kishining xozirgi paytdagi xolati, u ta'sirchan kayfiyatda ekanligi yoki emasligi, katta axamiyatga ega buladi. Kishi uzining atrofidagi narsalarning shunchaki sezmasligi, ularga fakat nazar tashlash, detallarga, xususiy tomonlarga e'tibor berish mumkin. Bexad xilma - xil buyumlar olamida predmetlarning turlari, gruppalari, tiplari shu kadar kupki, ularning funksional va estetik kiymati urtasidagi barcha extimol tutilgan nisbatlarni paykab olish kiyin. Ba'zi bir buyumlarga amaliy tomon, boshkalariga estetik tomon muximrok buladi. Utmishga nisbatan bizning davrimizda buyumning amaliy kiymati estetik kiymatiga nisbatan unchalik axamiyatli, birinchi darajali bulib kolmayapti. Uz bilimimiz doirasida u yoki bu buyum nima uchun "chiroyli" yoki "chiroyli emas" ligini kandaydir "gadir - budir" yoki "televizor ostidagi oyoklar juda "ingichka" ekan yoki mototsiklning rangi juda yorokin ekan". Lekin bu baxolar xam ogzaki va asossizdir. Bu umumiy estetik baxoni avvalo kismlarga bulishimiz kerak va fakat shundan keyingi xakikatdan xam asosli xulosa chikarilishi mumkin.

Buyumlar olamini loyixalash bilan shugulanadigan kishi uzining pirovard maksadiga – chiroyli buyum yaratishga xarakat kilar ekan, birinchi navbatda mazkur buyumning estetikasi va kiymati nimadan iborat ekanligini bilishi lozim.

Buyumning tashki formasi. Biror maksadda foydalaniladigan buyum xuddi xaykaltaroshlik va tasviriy san'at asari kabi, tashki formasi va rangi bilan xarakterlanadi. Bu albatta ana shu buyum xam odamga xuddi shunday emotsional ta'sir kila oladi degan ma'noni bildirmaydi.

Avvalo buyum formasining xarakterisiga karab chikamiz, bunda uning xar kandy amaliy va estetik mazmunini istesno kilamiz. Eng oddiy formalar bular bizga bulgan asosiy geometrik shakllar parallelepiped, prizma, silindr, konusdir. Bu geometrik jismlarning birikmalari ularning turli kombinatsiyalaridagi kesmasi va tutashuvi xam bulishi mumkin. kuppina buyumlar yana ancha murakkab shaklga ega buladi: ikki xil egri tasvirli, tashki bushlikning shu buyum doirasiga kirishi va shu kabilar.

Buyumni formasini shunchaki tasvirlash uchun kurulgan narsaga ogzaki ekvivalent topish, uning ob'ektiv portretini chizish uchun kandaydir kushimcha belgilar kerak buladi. Bular bizning umumiy tasvirimizni aniklashtirib beradi. Bu asosiy belgilarni aniklab chikishga xarakat kilamiz.

Buyumni formasi simmetrik va asimmetrik bulishi mumkin. Simmetriya bizga tanish bulgan termin. SHuni eslatib utamizki, simmetriya fakat elementar

buyumdagi emas, balki bir necha kislardan tashkil topgan, buyumga xam xos bulishi mumkin. Simmetriyaning ikkita asosiy turi - kuzguli va ukli simmetriyalar ma'lum.

Odamning figurasi kuzguli simmetriyaga tipik misoldir. Bu xildagi simmetriya kuzguli simmetriya deb atashning sababi shuki, urta chizikka nisbatan inson gavdasining xar ikkala yarim yarim xuddi kuzguga aks etganday buladi. Simmetriyaning bu xodisasi yuzaga nisbatan bulib, usimmetriya yuzasi deb ataladi.

Ukli simmetriya nuktalarining ukka nisbatan (birinchi xoldagi kabi yuzaga nisbatan emas) baravar uzoklashuvi bilan xarakterlanadi. Simmetrik figura guyo uk atrofida aylanganday buladi, uning egri chizigini tasvirlovchi chegarada koladi.

Bunday simmetriya misolini organik dunyoda yana xam kuprok buyumlar olamida, sun'iy olamda topish mumkin. Organik dunyoda bu karagay guduri, olma yoki yongok. Sun'iy buyumlar orasida simmetrik jismlar juda kup - bulan idishlar, tokarlik buyumlari, arxitektura detallari va shu kabilardir.

Nisbatlar. Xar kanday buyum ulchovlariga va real xajmga ega. Bular mutlako obektiv parametrlar xisoblanadi. Birok buyum mutlako xajmining uzida aniklik bor. Ba'zan kattagina xajm uzining joylashmasligi tufayli salbiy sifatga aylanib ketadi. Ana shunday vaktga «kupol mebel» kabilidagi iboralarni ishlatish mumkin.

Xar bir buyum uzining ichki nisbatlari bilan xam xarakterlanadi. Biz buyumni kurib chikar ekanmiz, ongli yoki ongsizmi uning ana shu xajmlari nisbatini idrok etamiz. Oddiy geometrik jismda diametr bilan balandlik nisbatini paykab olamiz. Odam kiyofasiga baxo berganda boshning ulchovlarini gavda tuzilishi ulchovlari bilan takkoslaymiz. SHunda biz «Bu kishining boshi katta ekan», «kalta oyokli odam» deymiz. Nisbat tushunchasi bilan kontrast tushunchasi va fark tushunchalari yoki kontrastli va farkli nisbatlar bir-biri bilan mustaxkam boglikdir. Nisbatlarning farkli bir-biriga yakinligiga doir misollar juda kup uchrab turadi. Bu erda uxshashlik darajasi ozgina sezilarli bulishi mumkin.

Idrok etish xususiyatlari bilan boglik bulgan bizning baxomiz tabiiy jismlarga xam, shuningdek sun'iy jismlarga xam taaluklidir. Odamning kuzi ayrim kislarning uzaro xajmini va yaxlitga nisbatan xajmini xam kiyoslaydi. Ruzgordagi biror asbobni, masalan, yoritkichga karab chikar ekanmiz, uning abajuri xajmi balandligi yoki abajur xajmini butun asbob bilan kiyoslaymiz.

"Nisbat" tushunchasi bilan kontrast va fark tushunchalari yoki kontrast va farkli nisbatlar bir-biri bilan mustaxkam boglikdir. Buyumlar olamiga nisbatan xar kanday kiyoslashni (xajmini, chizikli mikdorlarni, fakturalar, ranglarni) kontraslik

yoki farqlilik nuktai nazaridan ta'riflash mumkin. Masalan, flakoning plastmassa kopkogi uning gavdasiga nisbatan kontrastli: bu kopkog shaffof emas, rif (chugirtosh) bilan koplangan, flakoning yuzasi esa sillik flakon yasalgan shisha shaffof va xokazo. Kopkok bilan flakon xajmi xam kontrastli - kopkok butun korpusiga nisbatan kichik.

Buning uzi uz atofidagi narsalarga nisbatan xam kontrastli (metal idish yupka gilam fonida kontrast bulib kurinadi) bulishi mumkin.

Nisbatlarning farkli, bir- biriga yakinligiga doir misollar juda tez-tez uchrab turadi. Bu erda uxshashlik (aytaylik, ikki kesma yoki kub xajmini) kiyoslab keltirish mumkin.

Kup kislardan tuzilgan murakkab buyumda uning xajmi, plastik xarakteri jixatdan yanada xam kuprok kiyoslashlar bor. Tabiiyki, bu kiyoslashlar xam kontrastli xam farkli bulishi mumkin.

Xajmli - fazoviy tuzilish. Ma'lumki xar kanday buyum uch ulchovga ega bulib, bu ulchovlar nisbatini biz xamisha xis kilib turamiz. SHu sababli buyumning xajmiga doir xarakteristika uning asosiy ulchovlariga boglik buladi. Agar buyumning eni va balandligi chukurligidan nixoyatda katta bulsa, bunday tuzilish frontal tuzilish deb ataladi. Bunday tuzilishga ega bulgan buyum front buyicha chuzilib ketgan buladi. Agar buyumning chukurligi yukoridagi aytilgan tartibda bulsa, u xolda bunday tuzilishni biz fazoviy tuzilish, shunday tuzilishga ega bulgan figurani esa fazoviy figura deb ataymiz. Bunday xolda jismning oldingi yuzasi bilan uzoklashgan kismi urtasida sezilarli ravishda fazo ya'ni bushlik buladi.

Buyumlar xilma-xil bulib, ularni ta'riflash uchun «xajmli fazoviy tuzilish» terminidan foydalaniladi, oddiy ruzgor buyumlari: soat, taburetka. Bu tushunchalarni tushuntirib berishga xarakat kilamiz soat- yopik xajm, silindrik, kub yoki prizma xajmidan iborat biz bu xajmni osonlik bilan chizib chika olamiz, uning tashki fazoga nisbatan yopikligini xis etamiz. Taburetka texnik jixatdan elementlari kuprok uning xajmli-fazoviy tuzilishi murakkabrok, oyoklari va urindigi buyumning doirasini belgilab, guyo bir muncha fazoni kamrab olganday buladi. Stakanning tuzilishi butunlay boshkacha: unda uzining deyarli yopik ichki fazosi bulib, u tashki fazo bilan fakat bir tomondan tutashib turadi.

Material. Xar kanday buyum ma'lum bir materialdan ishlanadi, kup xollarda biz uning kanday materialdan va bizga tanish bulgan materialdan kilinganini bilamiz, fakat ayrim sintetik maxsulotlar va xar xil almashinuvchi materiallar bizni kiyin axvolga solib kuyishi mumkin: tashki kurinishi jixatidan bu materialning

kandayligini va u kanday xossalarga ega ekanligini bilolmay kolamiz. Kupincha xar xil koplama materiallar ishlatiladi masalan, yogoch rezba kadamdan levkas bilan koplangan va ustidan zarxal berilgan. Arzon yogoch sirtiga kimmatbaxo yogoch koplangan ya'ni fanerlangan va xokozo. Xar bir buyumning sirti kandaydir uziga xos sifatlar bilan ajralib turadi, ya'ni u gadir-budur yoki sillik-yaltirok yoki ishlangan buladi.

Buyum yasalgan material kishida sezilarli xissiyotlar uygotishi mumkin: shtamp izi kolgan notabiiy yorkin plasmassa, yogoch teksturasi, xromlangan yuzaning yaltirokligi, bronza yoki chuyan kandil tagdoning ogirligini oynaning shaffof va murtligini xis etish kishiga kuvonch bagishlashi mumkin. Bu narsa biz buyumdan foydalangan vaktimizda sezilarli buladi. Ta'lim jarayonining eng muhim qismlaridan biri - uni tashkil etish shakllaridir. Konstruksiyalash va texnologik masalalarni hal etishda ta'limning quyidagi shakllari eng samaralidir: texnik konstruksiyalash va modellashtirish buyicha amaliy mashg'ulotlar; guruh, individual, zveno shakllari va ularning turli birlashmalari, har xil yoshdagi talabalardan iborat guruhlar va h.k. Texnik konstruksiyalash va modellashtirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar deganda o'quv-mexnat faoliyatining ijodiy tashkil etilishi tushuniladi. Bu faoliyat ham jamoa, xam individual ish turlarini o'z ichiga oladi va bu ishlar o'qituvchi tomonidan tashkil etilib, bunda talabalarning o'quv materialni aktiv, ongli va mustahkam o'zlashtirishi ko'zda tutiladi. Har bir mashg'ulotda talabalar texnikaga, konstruktorlikka doir ilgari olgan bilimlarini, mehnat ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydilar, bu esa ular keyingi mashg'ulotlardagi materiallarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun asos bo'ladi. O'qituvchi mashg'ulot jarayonida butun gurug'ning va har bir talabaning ishlarini kuzatishi, kim yordamga muxtoj bo'lsa, unga o'z vaqtida ko'maklashuvi, boshqa talabalarning faoliyatini ham nazardan qochirmasligi, ular xavfsizlik texnikasi qoidalarni kanday o'rganayotganini tekshirib borishi kerak. Texnik konstruksiyalash va modellashtirishda bir xil tipdagi qurilmalar, modellar va maketlarni tayyorlashda ta'limning frontal shaklidan foydalaniladi. Talabalar bajariyotgan konstruktorlik-texnologik ishlar o'zining murakabligi va sermehnatligi bilan jamoa bo'lib ishlashni taqozo qilsa, hamda mazmunan bir-biriga yaqin va xarakteri jihatdan har xil bo'lsa, mashg'ulotni tashkil etishning zveno shaklidan foydalaniladi. Ko'pgina bunday hollarda murakkabroq bitta ob'ekt bilan 2-3 nafar talaba shug'ullanadi. Tayyorlanadigan obektlar o'z mazmuniga ko'ra bir xil va xarakteriga ko'ra har xil bo'lsa, texnik modellashtirish va konstruksiyalash bo'yicha amaliy mashg'ulotni tashkil etishning individual shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Mashg'ulotni tashkil etishning aralash shaklidagi modellashtirishning har xil ob'ektlarini bajarishda foydalaniladi.

Turli xil guruhga o'qituvchi talabalarda konstruktorlik bilimlari, ko'nikma va malakalarini moslashtirishda differensial yondoshish, bilim saviyasi pastroq talabalarga ko'prok e'tibor berish imkoniga ega bo'ladi. Bunda talabalarda ko'rsatishi, bajarilayotgan ishning mas'uliyatini his etishi uchun sharoit vujudga keladi, guruhning xar bir a'zosiga jamoaning ta'siri amalga oshadi.

2. Ma'lumki, ta'lim metodning turli klassifikatsiyasi mavjud. Mehnat ta'limi, unumli mehnat va talabalarning texnik ijodkorlik praktikasi uchun eng ma'quli o'zaro bog'liq ikkita jarayon o'qituvchi raxbarlik faoliyati va talabaning mustaqil ijodiy faoliyati yaqqol namoyon bo'ladigan o'qituvchi va talabalar ishining usullari bo'yicha beriladigan metodlar klassifikatsiyasidir. Ijodiy faoliyat metodlarining quyidagi klassifikatsiyalarini qabul qilish mumkin.

Muammoli ta'lim uslubiyoti-o'quv materialini muammoli bayon etish, izlanish suhbatlari, tadqiqot metodlari.

Og'zaki metodlar-ijodiy suhbat.

Ko'rsatmalilik metodlari-ratsionalizatorlik faoliyatini kuzatish, turli ijodiy ishlarni namoyish etish.

Amaliy ish metodlari — talabalarning mustaqil ijodiy ishlari, texnik adabiyotlar va ma'lumotnomalar bilan ishlash.

Nazorat qilish hal etish va ularni nazorat qilish texnik masalalarni hal etish va ularni nazorat qilish. Bunda o'qituvchining vazifasi xar bir amaliy mashg'ulotda texnik ijodkorlikning turli metodlarini uygulashtirib, talabalar o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirishni ta'minlashdan iborat.

YUqoridagilardan talabalar eng kam vaqt va kuch sarflab ijodiy ish usullarini, ilg'or texnologiya va ishlab-chiqarish iqtisodi asoslarini o'zlashtirish, ularda chinakam mehnatga munosabat, umumlashgan texnik bilimlar, ijodiy xarakterdagi umumiy mehnat uquv va malakalarini tarkib toptirishga, konstruktorlik va texnologik qobiliyatlarini shakllantirishga yodam beradigan, unumli mehnat va ijodiy faoliyat bilan fan asoslarini o'zaro ta'sirini, talabalarning keng politexnik fikr doirasini ijodiy mehnatning kasb tanlash va professional yo'nalishlarini ta'minlaydigan metodlarni eng samarali metodlar deyish mumkin.

3. Masalalar, savollar va amaliy topshiriqlar bu talabalar ijodiy faolligini oshiradigan effektiv didaktik vositalar hisoblanadi, agarda ularni tarkibiga

muammoli fikrlar ya'ni qarama - qarshi fikrlar kiritilgan bo'lsa, fikrlar qarama qarshiligi axborotni anglashdagi, anglash jarayonidagi va mantiqdagi ko'rinishlarda bo'ladi.

Fikrlarning axborot - anglashdagi qarama - qarshiligi, o'rganilayotgan xulosa, jarayon yoki predmetning mohiyati zamiriga kiritilgan bo'ladi. Uni ma'nolar konflikti orqali yuzaga chiqarish mumkin. Misol uchun, "Nima sababdan" chervyakli uzatma teskarisiga ishlay olmaydi?" haqiqatdan ham, aylanma harakat uzatilishiga hech narsa halal bermaydigandek tuyuladi. Ammo bu mumkin emas. Mana shunday qarama - qarshi fikrlar ta'sirida insonda "nima uchun bunday bo'lishi mumkin emas" ekanligini tushunishga istak paydo bo'ladi, ya'ni insonda "muammoli vaziyat" deb nomlanadigan psixologik holat yuzaga keladi.

Anglash jarayonidagi (uqishdagi) fikrlar qarama - qarshiligi hayot ilgari suradigan hamda anglash xarakterdagi nazariy va amaliy misollarni o'rganishda insonning bilim darajasi, anglashi va rivojlanishi bilan yuzaga keladi. Bunday holatlarda quyidagi xususiy xoldagi teskariliklar bo'lishi mumkin.

mumkin bo'lgan harakatlarning ko'pligi va ulardan ratsional, maqsadga muvofiq'ini tanlash orasidagi;

mavjud bilim va undagi yangi sharoitda amaliy foydalana olish o'rtasidagi;

masalani echishning mumkinligini nazariy usuli bilan amaliy jihatdan amalga oshira olmaslik yoki tanlangan usulning maqsadga muvofiq emasligi o'rtasidagi;

avvalgi tajriba va yangi harakat usuli yoki o'rganiladigan o'quv materiallarini taxlil qilishga yangicha yondoshish o'rtasidagi;

konkret texnik qurilma va uning sxematik tasviri orasidagi va boshqalar;

Mantiqiy teskarilikka muloxaza yuritishdagi qarama - qarshiliklar kiradi. Loyixalashda, mahsulot tayyorlash texnologiyasini tuzishda, prognozlash va diagnostika qilishda bir xil sababdan turli mulohazalar kelib chiqishi mumkin. U yoki bu mulohazalar to'g'riligini isbotlash muammoli vaziyatini yuzaga kelishi bilan bog'lik. Ba'zan bir holatda muloxaza to'g'riligini isbotlash uchun uni tajribada tekshirib ko'rishga ham to'g'ri keladi. Har qanday mashinani sinab ko'rish - bu uni ma'lum sharoitda ishlay oladimi - yo'qmi? - degan muloxazani tekshirish ekanligini bildiradi.

Anglash jarayonidagi va mantiqdagi teskarilik insonning obekt, xodisa yoki jarayon mohiyatini anglashga urinishda yuzaga keladi.

Texnik masalalarda fizik teskarilik bilan anglash jarayonlardagi fikrlar qarama - qarshiligi ham yuzaga keladi. Texnik xarakterdagi masalalarda teskarilik quyidagicha yuzaga kelishi mumkin, ya'ni texnik tizimning biror qismini (yoki biror parametrni) yaxshilash uning boshqa qism (yoki normalari)ni salbiylashuviga olib keladi.

U yoki bu xildagi teskarilik yuzaga keladigan texnik masalalar ijodiy masala hisoblanadi. Buni shunday tushunish mumkinki, fizik yoki anglashdagi teskarilik singdirilgan texnik masalalar echimi insondan standart (reproduktiv) bilmagan ijodiy (aktiv) faoliyatini talab qiladi. Echish algoritmi mavjud bo'lgan har qanday, xox u murakkab masala bo'lsin ijodiy masala hisoblanmaydi. Ijodiy masalalar echish algoritmiga ega emas, ya'ni ular o'quvchi, talaba, konstruktorga ma'lum emas. Ularni echish nostandart harakatlarni, ijodiy faoliyatini talab etadi. Bir masala ijodiy yoki ijodiy bo'lmasligi mumkin, bu uni har tomonidan echishga bog'liq. Agar masala fikrlar qarama - qarshiligini bartaraf etish usullarini biladigan kishi tomonidan echilsa u ijodiy masala hisoblanmaydi. O'quvchi, talabalardan biror masalani echish ko'proq bilim va o'rganishlarni talab etgani uchun, bu ular uchun ijodiy faoliyat hisoblanadi. Agar yuzaga kelgan masalani echish imkoni bo'lsa, ya'ni undagi fikrlar qarama - qarshiligi hal etilsa, bu masala muammo hisoblanadi va uni hal etgan holatda patent yoki mualliflik guvohnomasi beriladi, muammo echish esa ixtiro hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlardan shu kelib chiqadiki, insonda ijodkorlikni tarbiyalash unda fikrlar teskariligini hal eta olishni, ya'ni texnik fikrlashni rivojlantirishdan iborat ekan.

Texnik fikrlash murakkab psixologik jarayon xisoblanadi. Odatdagi shaklni tushunish fikrlashdagi u tajriba bilan bog'liqligi bilan ajralib turadi. Texnik fikrlashni shakllantirish uchun echiladigan masalalar tarkibi real texnik qurilma, jarayon yoki harakat bilan bog'liq bo'lib, ular mashina mexanizmlar effektiv ishlashini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bunday masalalarga texnik obektlarni loyixalash masalalari, texnologik xarakterdagi va texnik qurilmalar modellarini yasash jarayoni bilan bo'lgan tashkiliy masalalar misol bo'la oladi.

Konstruktorlik masalalariga texnik qurilma, modellar real qo'llaniladigan predmetlarni yaratishga yo'naltirilgan masalalar misol bo'ladi. Konstruktorlik masalalarini echish bu texnik xujjatlar, eskizlar, texnik rasmlar, chizma va sxemalarni tuzishdan iboratdir. Konstruktorlik masalasi muammoli hisoblanadi,

chunki uni echish uchun inson texnik teskarilik yoki o'rganish jarayonidagi fikrlar qarama - qarshiligini echish lozim bo'ladi.

Zarur konstruktorlik ko'nikmalari muayyan bir tartibdagi tayyor konstruksiyalar, mavjud detallar va shu kabilardan foydalanib loyixalash, qayta loyixalash, biror mo'ljal bo'yicha, texnik sharoitlar yoki o'z fikricha loyixalash to'g'risida muloxaza yuritadigan masalalarni echishda shakllanadi.

Loyixalashni o'rganish uchun detallar, mahsulotlar, mashina va mexanizmlarning mavjud konstruksiyalari to'g'risida muloxaza yuritadigan masalalar muhim ahamiyatga ega. Bularni loyixalashni o'rgatishning dastlabki bosqichida qo'llash maqsadga muvofiq. Biroq bunday masalalar loyixalashni o'rgatishning hamma bosqichlarida, hatto malakali konstruktorlar faoliyati uchun ham foydalidir. Ulardan foydalanish usuli quyidagicha amalga oshiriladi. Konstruktiv elementlarning yaqqol namoyon bo'luvchi belgilanishlari funkcionalligi, texnologiyaviyligi, oddiyligi tizimi tanlanadi. Ajratilgan belgilardan har biri didaktik ishlanadi va o'rganuvchilarga savol, masala yoki amaliy mashg'ulot ko'rinishida beriladi. Konstruksiyani muhokama qilishdagi masalani echishning eng yaxshi shakli kollektiv muhokamasidir. O'rganuvchilar o'z fikrlarini bildirishadi, bildirilgan fikrlar ayrimlari qabul qilinadi va shu asnoda masala echimi topiladi.

Qayta loyixalash masalalari ularni echish jarayonida texnik qo'llanmaga konstruktiv o'zgartirishlar kiritish zarurligi bilan xarakterlanadi. Bunda echim ayrim detal materiallarini o'zgartirish, butun qurilma yoki uning ayrim qismlarining funksiyasini o'zgartirish bilan, qurilma ish rejimini o'zgartirish va shu kabilar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Loyixalash masalalarida talaba texnik xujjatlar bilan birga konkret model yoki predmetlarni tayyorlashni xam ishlab chiqishlari talab etiladi, ya'ni ular texnik masalalarni echish lozim bo'ladi.

Texnologik masalalar aksariyat hollarda joriy masalalar hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin. Har bir konkret holat uchun bir detalning o'zini turli xil uskuna, har xil ishlov berish rejimi, moslama, asbob va boshqalardan foydalanib tayyorlash mumkin. Maxsulot tayyorlash texnologiyasini muhokamasiga bag'ishlangan masalalar o'qitishning dastlabki davrlaridagina emas, balki texnik faoliyatining barcha bosqichlarida muhim ahamiyatga ega. Bu shu bilan xarakterlanadiki, talaba o'qish jarayonida biror masalani echishda yangi bir masalaga duch kelishi mumkin, bu o'z-o'zidan masalani echishni murakablashtirib boradi. Talaba oldida ko'proq mahsulot tayyorlashni optimal ketma-ketligini, ishlov berish - rejimlarini

va shu kabilarni tanlash vazifasi turadi. Muxandis - texnolog oldiga qo'yiladigan masala biroz murakkabroq ya'ni maxsulot tayyorlash texnologiyasini minimal iktisodiy xarakterlari bilan, yuqori aniqlikni inobatga olgan holda, avtomatlashtirilgan holda boshqariladigan dastgox uskunalaridan foydalanib ishlab chiqish talab etiladi. Ixtirochilar o'z oldilariga qo'ygan masala esa yanada murakkabrok, mahsulot tayyorlashning ma'lum usulidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tashkiliy masalalar xam texnik masalalarning muhim turlaridan bo'lib, u o'rganuvchilardan mustaqil fikr yuritishni talab etadi, birok echimni topishda konstruktorlik yoki texnologik masalalardan qolishmaydi.

Mavzu 3: TAKLIF ETILGAN YECHIMLAR ASOSIDA XONALARNI JIXOZLASH SHAXAR VA QISHLOQ UYLARIDA SUV, GAZ, ELEKTR ENERGIYASI VA ISSIQ TA'MINOTI TIZIMI VA UN DAN FOYDALANISH QOIDALARI.

Reja:

Uy xonalarini jixozlash.

Shaxar qishloqlarda suv, gaz, issiqlikni tizimi.

Suv, gaz, elektrdan foydalanish tizimi.

Uy va xonalarni loyixasini tanlashda uni jixozlash, ya'ni mebellarni va boshqalarni joylashtirish katta ahamiyatga ega. Turar joy xonalardagi mebellar oila a'zolarining soniga, xar bir yashovchining mashg'uloti turi xonalarning vazifasi va hozirgi zamon uylari intereri estetikasi mos kelishi lozim. Lekin xonaning kurimi undagi jixozlarning nafosati, did bilan jixozlanganligi shu uyda yashovchilarning o'quviga, e'tiboriga bog'liq. Uydagi yoki bir xonadagi mebel jixoozlari bir garnituradan bir nabordan bo'lishi shart emas. Lekin xamma predmetlar shakli, hajmi, bezagi, rangi bir-biriga mos bo'lgani ma'qul.

Zamonaviy uylar umumiy xona odatda oila a'zolarining dam olishishga, ishlashiga xizmat qiladi.

Сув таъминоти тизими. Сув истеъмоли тартиби, биноларнинг турлари, шунингдек технологик ва ёнғин хавфсизлиги талабларидан келиб чиққан ҳолда сув тармоқлари: боши берк; айланали, комбинациялашган кўринишда бўлиши мумкин. Боши берк сув тармоқлари асосан таъминотда тармоқ ёки унинг бир қисми ишдан чиқиши натижасида тўхталишлар бўлиб турадиган жойларда қурилади. Булар турар жой, маъмурий ва ишлаб чиқариш бинолари бўлиши мумкин (11-расм). 11-расм. Турар жой биносининг сув таъминоти схемаси

Айланали сув тармоқлари асосан кўп қаватли уйларнинг узлуксиз таъминотини амалга ошириш заруратини этиборга олиб қурилади. Айланали тармоқлар ташқи сув қувури билан бир нечта уланишга эга бўлиб, улардан

бири узилганда ҳам бинонинг сув билан таъминлашини тўхтаб қолмайди. Комбинациялашган сув тармоқлари боши берк ва айланали қувурлардан таркиб топган бўлиб, сувга уланадиган қурилмалар бирбиридан катта ораликда жойлашган йирик биноларда қўлланилади. Табиий газ иқтисодий жиҳатдан энг қулай энергия манбаларидан бири ҳисобланиб, республикамызда аҳоли турар жойларини бу каби арзон ва самарали ёқилғи билан таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу билан бирга биз газдан фойдаланишда хавсизлик чораларига қатъий риоя қилмоғимиз лозим. Хонадоннинг газ таъминоти тармоғи газ элтувчи қувур, тақсимловчи газ қузури, газ оқимини бошқарувчи усқуналар, газ сарфи ҳисоблагичи ҳамда газдан фойдаланиш қурилмалари киради. Газ тармоқларини ўтказишда қуйидагиларга қатъий амал қилинади: қувур пўлат трубаларни пайвандлаш асосида қурилиб, зарур усқуналар билан резбали бирикмалар орқали уланади; барча газ қувурлари сувга чидамли мойбўёқ билан бўялади; газ қувурлари асосан ошхона, йўлак ва бошқа турар жой сифатида фойланимайдиган хоналардан ўтказилади; қувур хожатхона ёки ванна орқали, шунингдек эшик ёки ойна ромлари орқали ўтказилиши тақиқланган. Электр таъминоти хонадонимиз ёритилишини, иситилишини,

маиший техникаларни ишлашини ва бошқа қулайликларни таъминлашга хизмат қилади. Хонадоннинг электр таъминоти масъулиятли иш бўлиб, махсус тайёрланган мутахассис томонидан бажариладиган, юқори даражада касбий малака ва маҳорат талаб қилувчи меҳнат ҳисобланади. Чунки, электр тармоғидаги атига битта ишончсиз уланиш кейинчалик ёнғин келтириб чиқаришга, нотўғри уланган ўтказгич эса уйда яшовчиларниг жароҳатланишига ёки қимматбаҳо усқуналарнинг ишдан чиқишига олиб келиши мумкин. Электр билан боғлиқ барча операциялар, ҳатто ёритиш лампасини алмаштириш ҳам катта эҳтиёткорлик билан бажарилиши лозим. Хонадонга электр тармоғи ўтказиш ёки уни таъмирлашда эса хавсизлик ва ишончилилик борасидаги энг замонавий талабларга риоя қилиш ва сифатли жиҳозлардан фойдаланиш лозим. Хонадон электр таъминотининг намунавий схемаси ўзида кириш жойидаги автоматик калит, электр энергияси ҳисоблагичи, ҳимояловчи ўчириш қурилмаси, хоналардаги розетка ва калитлардан таркиб топади

Xalqaro tashkilotlardan evropa iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (YEIHR) hisob – kitoblariga qaraganda issiqlik va energetika resurslarining qazib chiqarishdan to foydali energiya sifatida iste'molchilarga etib kelishi orasida deyarli 70% isrof bo'lib, faqat 30% gina iste'molchiga etib boradi. Agar 1978 yilda

sarf bo'lgan 5 mlrd. t. shartli yoqilg'ining 1, 5 mlrd. t. sigina «Foydali energiya» sifatida sanoati rivojlangan mamlakatlardagi iste'molchilarga etib borgan xolos.

Xalqaro energetika agentligining (XEA) ma'lumotlariga ko'ra 1985 yilda shu tashkilotga kiruvshi sanoati rivojlangan 20 davlatda energiyadan tejamkorlik bilan foydalanish to'g'risidagi dasturlar bo'yicha energiyadan iqtisod qilish 10 – 15% bo'lishi kerak edi, ammo real ko'rsatkichlar bundan bir muncha oshiq bo'ldi.

60-rasmda. Bir tirnoqli yashirin birikmalar:

Buning uchun brusoklarning uchida o'lchamda tirnoq va quloq uzunligi rejalaniib, qolgan tomonlarga go'niya yordamida olib o'tiladi.

Bir tirnoqli birikmalarda tirnoqning qalinligi yoki quloqning kengligi brusok qalinligining $7/3$ qismiga teng qilib olinadi (shuni hisobga olib ko'pincha bir tirnoqli birikmalarda brusokning qalinligini 3 ga qoldiqsiz bo'linadigan o'lchamda tayyorlanadi).


Shuning uchun tirnoq va quloq o'lchamlarini rejalashda xatkashning bir cho'pini brusok qalinligining h qismiga (3), ikkinchi cho'pini brusok qalinligining $2h$ (3) qismiga teng o'lchamga sozlanadi va ikkala cho'p yordamida «bet»larga nisbatan brusok chetlariga reja chiziladi.


Reja asosida tirnoq chiqarish va quloq ochish uchun birinchi navbatda tilishishi olib boriladi. Tirnoq va quloqlarni tilishishlari 44-rasmda ko'rsatilganidek olib boriladi. So'ng tirnoqchiqari uchun kertish va quloq ochish uchun o'yishishi bajariladi.





Tirnoq va quloqlarni o'zaro bir-biriga kiritib birikma hosil qilingach, uning jipsligi ta'minlanadi. Jipslikni ta'minlash chaspakli dastarra yordamida olib boriladi.

Bir tirnoqli birikmalar.

Texnologik xarita



| № | Ish ketma – ketikligi | Ish eskizi | Rejalash Asboblari | Asbob va uskana | Moslamalar |
|---|------------------------------|---|-----------------------|--------------------|------------|
| 1 | Birikmaga mos yogoch tanlash |  | | | Dastgoh |

| | | | | | |
|---|--|---|----------------------------------|---|----------------------|
| 2 | Yogochni randalash va qirqish |  | Chizgich qalam | Randa va arra | Tirgak,tiski dastgoh |
| 3 | Tirnoq va quloqlarni rejalash |  | Chizg'ich, qalam, gonya, hatkash | | tiski dastgoh |
| 4 | Tirnoq chiqarish va quloq ochish |  | Chizg'ich, qalam, gonya, hatkash | Tiluvchi, qirquvchi arra, oyuvchi iskana, to'qmoq | tiski dastgoh |
| 5 | Brikma hosil qilish, jipsligini ta'minlash |  | Chizg'ich, qalam, gonya, hatkash | oyuvchi iskana, to'qmoq, chaspakli arra | tiski dastgoh |

61-rasm Bir tirnoqli birikmalarning texnologik xarita

Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Ochiq tirnoqli va yopiq tirnoqlibirikmalar haqida nimalarni bilasiz?
2. Ishbuyum tayyorlashda xavfsizligi qoidalarini tushuntiring. ?
3. Tayyorlashda ishlatiladigan asbob uskunalardan foydalanish qoidalari

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib G. Abduqodirovning "Kasb ta'limi praktikumi" 2012 y adabiyotlardan foydalangan holda mavzu bo'yicha texnologik xarita tuzib kelish⁵.

6-Amaliy mashg'ulot

| | |
|-----------------|--|
| 6-mavzu. | Burchakli ko'r tirnoqli birikmalar texnologiyasi va biriktiriladigan birikmalar |
|-----------------|--|

Amaliy mashg'ulotining texnologiyasi

| | |
|--|---|
| Vaqti – 360 min | O'quvchilar soni _10 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Amaliy mashg'ulot |
| Amaliy mashg'ulotining rejasi | <ul style="list-style-type: none"> •Quloqcha va turumli o'rtalik birikmalar texnologiyasini o'rganish/ •O'rtalik birikmalarni bajarishda ishlatiladigan materiallar, asboblari va moslamalar tavsifi •Ish uslubini ko'rsatish, tushuntirish. •Yaroqsizlik turlari va ularning oldini olish •Mehnat havfsizligi qoidalari. Ishlov berish va malaka hosil qilish |
| Amaliy mashg'ulotining maqsadi: Bir tirnoqli ochiq va ikki tirnoqli turumlar tayyorlash va bajarish texnologiyasi haqida ma'lumot berish. | |
| <p>Pedagogik vazifalar: Birikmasiz to'g'ri burchak shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi o'rganib chiqish va amaliy ish bajarish. 2.Yog'och materiallarini kesish to'g'risida umumiy tushunchalarni aytib berish.</p> <ul style="list-style-type: none"> •Ish uslubini ko'rsatish, tushuntirish. •Yaroqsizlik turlari va ularning oldini olish ,Mehnat havfsizligi qoidalari. Ishlov berish va malaka hosil qilish | <p>O'quv faoliyatining natijalari: O'quvchi: Birikmasiz to'g'ri burchak shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi o'rganib chiqish va amaliy ish bajarish. 2.Yog'och materiallarini kesish to'g'risida umumiy tushunchalarni aytib berish.</p> <ul style="list-style-type: none"> •Ish uslubini ko'rsatish, tushuntirish. •Yaroqsizlik turlari va ularning oldini olish • Mehnat havfsizligi qoidalari. Ishlov berish va malaka hosil qilishni o'rganadilar |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish texnikasi. |
| O'qitish vositalari | tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |

| | | |
|-----------------------------------|--|--|
| 3-bosqich Yakuniy (15 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va o'quvchilar e'tiborini asosiy masalaga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantiradi. | 3.1. Eshitadi, o'z fikrlariga aniqlik kiritadi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi. |
|-----------------------------------|--|--|

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini

nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning mehnat ta'limidan buyumlar tayyorlash texnologiyasi haqidagi bilimlarini savol-javob orqali aniqlaydi.

Kirish yo'riqnomasi:

O'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan qo'l asboblarning turlari, tuzilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va rejalash va arralash vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra kesish, rejalashni va arralashni mashq qildirish haqidabuyumlar tayyorlash(ko`rsatkich,yogoch kubik va h k)

Joriy yo'riqnomasi: O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Qo'l asboblarning tuzilishi va turlari, ulardan foydalanish qoidalari xaqida ma'lumot berish kerak. Xavfsizlik qonun qoidalari

xaqida tushunchalar berishduradgorlik asbob uskunalardan to'g'ri foydalanish usullarini mashq qilish bo'yicha amaliy ishlar bajariladi.

Yakuniy yo'riqnomasi: Joriy yo'riqnomasi berish vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. o'quvchilar baholanadilar (nazariya masalalari va

ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi;

ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalari rioya

qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani

o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning


sifati; agar ish meyorlanmsa, belgilangan meyorda bajarishi).

Baholashmezoni

| № Baholanish ma'lum mezunga asoslanadi | 2ball | 5baho |
|---|--------------|--------------|
| 1 Nazariy masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi | 0,3 ball | |
| 2 Bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; | 0,2ball | |
| 3 Xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; | 0,3 ball | |
| 4 Chizmani o'qiyolishi | 0,2 ball | |
| 5 Topshiriqni mustaqil bajaraolishi; bajargan ishning sifati; belgilangan meyorda bajarishi | 1 ball | |

Ko'p tirnoqli birikmalarni rejalash.

Ikki tirnoqli va ko'p tirnoqli birikmalarda ikki cho'pli xatkashlar yordamida rejalash mumkin emas. Ular uchun maxsus ko'p chizg'ichli xatkashlar tayyorlanadi yoki andazalardan foydalaniladi.



Tirnoq andazalari va ko'p chizg'ichli xatkash.


a – dasta bet andazasi; b – to'g'ri tirnoq andazasi; v – “qaldirg'och quyruq” andazasi; ko'p chizg'ichli xatkash

Bir tirnoqli maxfiy yoki yarim maxfiy birikmalarda quloq o'rnida uya yoki teshik ochiladi. Buning natijasida tirnoq butunlay ko'rinmaydi yoki tirnoqniig uch qismigina ko'rinadi. SHunga ko'ra maxfiy tirnoqli birikmalarda uya (brusokning eniga qarab) brusok eninining 2/3 yoki 3/4 qismigacha o'yilib, tirnoqning uzunligi unga moslab chiqariladi.

Tirnoqli birikmalar hamma vaqt elimlab biriktiriladi. Ayrim xollarda birikmaning puxtaligini oshirish uchun unga yog'och mix qoqiladi yoki uning sifatiga qarab ichki yoki tashqi tomonidan po'lat burchaklik yoki fanerdan tayyorlangan uchburchaklik mixlanadi.

Duradgorlik buyumlarniing sifatini oshirish maqsadida, ko'shimcha, detallarning «bet» qismlari yoki birikma ustidan mixlanadigan (qoplanadngan) chaspaklarning tirnoq va quloqlari porsi usulida (45° burchak ostida) biriktiriladi. Bunday detallarning «bet» qismlariga chorafzal randalar yordamida har xil gullar chiqarilgan yoki faska olingan bo'ladi. Ular to'g'ri burchak hosil qilib biriktirilsa, gullar yoki faskalar bir – biriga mos kelmay birikmaning sifati buziladi.


Porsi usulida bog'lashda qismlar bir – biriga tirnoqsiz yoki tirnoqli qilib biriktirilishi mumkin.



Bir tirnoqli va ko'p tirnoqli maxfiy va yarim maxfiy birikmalar
a, g – maxfiy; b, v – yarim maxfiy

Porsi usulida bog'lash

Tirnoqsiz porsida bog'lashda, ular zakrovli yoki zakrovsiz bo'lishlaridan qat'i nazar, detallarning uchlari porsida usulida (45° burchak ostida) arralanib, ular bir-biriga mixlab, qirg'og'iga tunuka lenta yoki po'lat burchaklik qoplab biriktiriladi. Talab etilishiga qarab detallarning betiga faska yoki gul chiqariladi.



Tirnoqsiz porsida birikmalar

Bunday hollarda chorabzal randalar bilan randalash ham mashq qoldiriladi. Gul chiqarish «bet» va qirrasida randalangan biror brusok, reyka, taxtalarda mashq qilinadi.

Porsi usulida bog'lash mashqi 1–texnologik kartada ko'rsatilgan tartibda bajariladi.

1,2 ishlar 1-texnologik karta asosida tayyorlanadi.

3. Tirnoq va quloqlarni rejalash. Buning uchun brusoklarning uchidan a o'lchamda tirnoq va quloq uzunligi rejalaniq qolgan tomonlarga go'niya yordamida olib o'tiladi. SHuningdek, "bet"larga porsni go'niya yordamida brusoklarning uchlaridan porsni chizig'i (45° burchak ostida qo'shimcha reja) chiziladi. So'ngra xatkashni tirnoq o'lchamiga sozlab, «bet»larga nisbatan brusokning qirralariga reja chiziladi.

4. Reja asosida tirnoq chiqarish va quloq ochish uchun birinchi galda tilish ishi bajariladi. Tirnoq chiqarish uchun tnlshda orqa tomondan go'niya chizig'igacha tilinib, «bet» tomondan porsni chizig'iga (45° li rejaga) moslab burchak oostida tilinadi. Buning natijasida orqa tomondan go'niya chizig'i bo'iicha, «bet»dan porsni chizig'i bo'yicha kertib tirnoq chiqariladi. Quloq ochilgandan so'ng «bet» tomondan tirnoqqa moslab porsni chizig'i bo'yicha arralab tashlanadi (kertiladi). Kertish vaqtida arralash porsni qolip yordamida bajarilishi mumkin.

5. Talab etilishiga qarab faska yoki gul chiqarish. Detallarga faska chiqarishda ularning bir xil chiqishini ta'minlash uchun «bet» va ichki qirralarga xatkash yordamida reja chizib olinadi. Reja chizig'igacha randalanadi. Gul chiqarishda chorabzal randalar yordamida payraha chiqmay qolgunga qadar randalash davom ettiriladi.

6. Tayyor qismlarni o'zaro biriktirib birikma hosil qilinadi va uning jipsligi ta'minlanadi.

Zakrovli birikmalar

Oynalanadigan duradgorlik buyumlari tayyorlashda zakrovli birikmalar hosil qilinadi. Zakrovli birikmalar dasta bet, to'g'ri tirnoqli yoki porsni usulida biriktirilishi mumkin.

Zakrovli birikmalar boshqa turdagi birikmalarga qaraganda bir oz murakkab bo'lib, ma'lum darajada malaka bo'lishini talab etadi. SHuning uchun ham zakrovli birikmalar hosil qilish mashqini o'quvchilarda etarli ko'nikma va mehnat malakalari hosil bo'lgandan so'ng o'tkazilgani ma'qul.

Quyida to'g'ri tirnoqli zakrovli birikmalar hosil qilish usuli bilan tanishib o'tamiz.

To'g'ri tirnoqli zakrovli birikmalar 5 – texnologik kartada ko'rsatilgan ketma-ketlikda tayyorlanadi.

1. 1- texnologik kartaga muvofiq material tanlanadi va brusok tayyorlanadi.

2. Brusoklarning uchi go'niyali qilib tayyorlangandan so'ng a o'lchamda tirnoq va quloq uzunligi rejalaniq go'niya yordamida qolgan tomonlarga olib o'tiladi.

Zakrov ochilganda quloqning qirg'og'idan qirqimi 1 sm^2 bo'lgan a uzunlikdagi qismi randalanib (chiqib) ketadi. Buni hisobga olib tirnoq chiqarishda zakrovlik tomonidan 1 sm qisqa kertiladi. SHuning uchun tirnoqni rejalashda a o'lchamdagi reja chizig'idan 1 sm tashlab $a-1$ o'lchamda qo'shimcha reja chiziladi va go'niya yordamida qolgan tomonlarga olib o'tiladi.

Tirnoq va quloqlarni rejalashda zakrov ochilishini hisobga olib xatkashning bitta chizg'ichini hamma vaqt 1 sm o'lchamga sozlanadi. (CHunki zakrov randa qirg'oqdan 1 sm^2 qirqimlik zakrov ochadi.) Ikkinchi chizg'ichni esa iskananing enini hisobga olib,

unga 1 sm qo'shib sozlanadi (iskananing eni 15 mm bo'lsa xatkashning ikkinchi chizg'ichini 25 mm ga sozlanadi). Xatkashni shu tariqa o'lchamga sozlab tirnoq va quloq rejalaniadi.

3. Tirnoq chiqarish va quloq ochish reja asosida olib boriladi. Tirnoq chiqarishda zakrovli tomondan $a-1$ sm o'lchamli reja chizig'igacha tilinib so'ng kertiladi. Orqa tomondan a o'lchamli reja chizig'igacha tilinib so'ng kertiladi.

Quloq odatdagidek ochilaveradi.

4. Zakrovlar bir yoqli ochilganda hamma vaqt brusokning «bet» va «yordamchi bet»lar kesishuvchi qirrasidan ochiladi. Zakrov zakrovrandada yordamida ochiladi.

5. To'g'ri tirnoqli zakrovli birikmalarga sifat berish maqsadida «bet» tomondan zakrov ochilsa, orqa tomondan faska chiqariladi. Buni hisobga olib tirnoq chiqarishda orqa tomondan a o'lchamda kertmak chiqariladi, balki tilishni a o'lchamgacha olib borib, kertishda $a-1$ o'lchamli reja chizig'idan a o'lchamli reja chizig'iga tushadigan qilib burchak ostida aralash kertiladi.

Barcha qismlardagi faskalarning bir xil chiqishini ta'minlash uchun faska chiqariladigan qirra bo'yicha xatkashning katta o'lchamli cho'pi bilan, orqa tomonga 1 sm ga sozlangan cho'pi bilan reja chizib olinadi. Buning uchun xatkashni tirnoq, quloq rejalashga sozlangan holicha saqlash kerak. Faska chiqarishda randalash reja chizig'igacha davom ettiriladi.

Agar zakrovli birikmalarga faska o'rnida gul chiqarilsa tirnoq, quloqlar porsiy usulida biriktiriladi. Biriktiriluvchi qismlardagi gullarni bir-biriga mos kelishini ta'minlash maqsadida gul chiqarishdan oldin qismlarni xomaki yig'ib, birikmaning tekisligi ta'minlangandan so'ng qayta qismlarga ajratib gul chiqariladi.

6. Tayyor bo'lgan qismlar yig'ilib, jipsligi ta'minlanadi.

«Qaldirg'och quyruq» tirnoqli birikmalar

To'g'ri tirnoqli birikmalarda birikmaning puxtaligi elimlash yo'li bilan ta'minlanadi. Tirnoqli birikmalarning puxtaligini oshirish uchun ayrim hollarda elimlash bilan birga qo'shimcha yog'och mixlar va metall burchakliklar qoqiladi.

Ba'zan duradgorlik yo'li bilan tayyorlanadigan tirnoqli birikmalarda elim, yog'och mixlardan foydalanmagan holda puxtalikni ta'minlanadi. Bunday birikmalar «qaldirg'och quyruq» tirnoqli birikmalar deb ataladi.

«Qaldirg'och quyruq» tirnoqli birikmalar bir tirnoqli yoki ko'p tirnoqli bo'ladi.

Bir tirnoqli «qaldirg'och quyruqli» birikmalar kesaki bog'lashda ko'p tirnoqli «qaldirg'och quyruqli» birikmalar sandiq (yashik) bog'lashda qo'llaniladi.


a) Bir tirnoqli «qaldirg'och quyruqli» birikmalar 6-texnologik kartada ko'rsatilgan tartibda hosil qilinadi.

1. 1-texnologik kartaga muvofiq birikmaga bop yog'och tanlanadi va zagotovka tayyorlanadi.


2. 3. Rejalash, tirnoq chiqarish va quloq ochish. «Qaldirg'och quyruqli» birikmalarda dastavval tirnoq chiqarilib, so'ngra tirnoqqa moslab quloq ochiladi (15-rasm). Chunki «qaldirg'och quyruqli» birikmalarni yig'ishda detalning biri ikkinchisiga tushadi, lekin ikkinchisi birinchisiga tushmaydi. Shuning uchun rejalash, tirnoq chiqarish va quloq ochish ishlari aralash bajariladi.

«Qaldirg’och quyruq» tirnoqli birikmalarda tirnoqning uzunligi yog’ochning qalinligiga moslab olinadi. «Qaldirgoch quyruq» ko’rinishdagi tirnoq o’lchamlarini xatkash yordamida rejalab bo’lmaydi. Ular faner, plastmassa yoki tunukadan tayyorlangan maxsus andazalardan foydalanib yoki lineyka yordamida rejalanadi (16-rasm).

Andaza yordamida rsjalashda uni yog’ochning ko’ndalang qirqimiga qo’yib, tirnoqning ko’ndalang qirqimi rejalanadi. So’ngra reja chiziqlarining uchlarini «bet» va orqa tomonga lineyka yordamida ko’chiriladi.



«Qaldirg’och quyruqli» birikmalar xosil qilishda quloqlarni rejalash



Andaza yordamida rejalash.

Tirnoq chiqarish va quloq ochishda tilish, kertish, o'yish ishlari oldingi mashqlardagi tartibda bajariladi.


4. Qismlarni yig'ish tirnoqni quloqqa kiritish yo'li bilan yoki aksincha olib boriladi.




Birikmaning puxtaligi tirnoqdan quloq qismiga qarab mixlash yo'li bilan ta'minlanadi. Quloqdan tirnoqqa qarab mix qoqilmaydi.

Kesaki bog'lashda uning barcha qismlaridan eshik va deraza qanotlari o'rni-chok ochiladi. CHokning chuqurligi barcha hollarda 15 mm bo'lib, eni qanot taxtalarining qalinligiga moslab ochiladi. CHoklar frezerlash stanoklarida yoki chok randa yordamida qo'lda ochiladi.

b) «Qaldirg'och quyruq» tirnoqli sandiq bog'lashda tirnoq chiqashrih va quloq ochish 6-texnologik kartada ko'rsatilgan tartibda bajariladi. Sandiq bog'lashda «qaldirg'och quyruq» yoki prizmatik shakldagi ko'p tirnoqli birikmalar hosil qilinadi. Prnzmatik shakldagi ko'p tirnoqli birikmalarda tirnoq va quloqlarni ko'p chizg'ichli moslangan xatkashlar yordamida yoki andazalardan foydalanib bnr vaqtda rejalanadi.

Murakkab bir tirnoqli birikma



| №№ | Иш кетма-кетлиги | Иш эскизи | Асбоблар | | Мосламалар |
|----|--|---|--|--|---------------------------------|
| | | | Ўлчов | иш | |
| 1. | Бирикмага мос ёғоч танлаш, берилган ўлчамларга келтириб рандалаш ва қирқиш 1-технологик карта асосида олиб борилади. | | | | |
| 2. | Тирноқ ва қулоқларни режалаш |  | линейка, гўния, қалам, хаткаш | | режалаш столи ёки верстак |
| 3. | Тирноқ чиқариш ва қулоқ очиш |  | | тилувчи, қирқувчи, арра, ўювчи ис- кана, тўқ- моқ | верстак |
| 4. | Бирикма ҳосил қилиш, жипслигини таъминлаш |  | | йўнувчи искана, тўқмоқ, часпакли арра | верстак |

7-Amaliy mashg'ulot

| | |
|----------|---|
| 7-mavzu. | Yog'ochlarga kuydirib ishlov berish texnologiyasi |
|----------|---|

Amaliy mashg'ulotining texnologiyasi

| | |
|--|---|
| Vaqti – 360 min | O'quvchilar soni _10 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Amaliy mashg'ulot |
| Amaliy mashg'ulotining rejasi | <ul style="list-style-type: none"> •Quloqcha va turumli o'rtalik birikmalar texnologiyasini o'rganish/ •O'rtalik birikmalarni bajarishda ishlatiladigan materiallar, asboblari va moslamalar tavsifi •Ish uslubini ko'rsatish, tushuntirish. •Yaroqsizlik turlari va ularning oldini olish •Mehnat havfsizligi qoidalari. Ishlov berish va malaka hosil qilish |
| Amaliy mashg'ulotining maqsadi: Bir tirnoqli ochiq va ikki tirnoqli turumlar tayyorlash va bajarish texnologiyasi haqida ma'lumot berish. | |
| <p>Pedagogik vazifalar: Birikmasiz to'g'ri burchak shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi o'rganib chiqish va amaliy ish bajarish. 2.Yog'och materiallarini kesish to'g'risida umumiy tushunchalarni aytib berish.</p> <ul style="list-style-type: none"> •Ish uslubini ko'rsatish, tushuntirish. •Yaroqsizlik turlari va ularning oldini olish ,Mehnat havfsizligi qoidalari. Ishlov berish va malaka hosil qilish | <p>O'quv faoliyatining natijalari: O'quvchi: Birikmasiz to'g'ri burchak shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi o'rganib chiqish va amaliy ish bajarish. 2.Yog'och materiallarini kesish to'g'risida umumiy tushunchalarni aytib berish.</p> <ul style="list-style-type: none"> •Ish uslubini ko'rsatish, tushuntirish. •Yaroqsizlik turlari va ularning oldini olish • Mehnat havfsizligi qoidalari. Ishlov berish va malaka hosil qilishni o'rganadilar |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish texnikasi. |
| O'qitish vositalari | tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |

| | |
|----------------------------|--|
| O'qitish shart-sharoitlari | Mehnat ish qurollari va asbob-uskunalari bilan jihozlangan xona. |
|----------------------------|--|

Amaliy mashg'ulotlarining texnologik xaritasi

| Bosqichlar vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|--|--|---|
| | O'qituvchi | O'quvchi |
| 1-bosqich Kirish (15 min.) | 1.1.Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1.Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich. Asosiy (30 min.) (30min) | <p>2.1. O'quvchilarning e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javoblar o'tkazadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'rtalik birikmalarni bajarishda ishlatiladigan materiallar, asboblari va moslamalar ning qanday turlari mavjud? • Quloqcha va turumli o'rtalik birikmalar qanday turlarini bilasiz? <p>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> •Quloqcha va turumli o'rtalik birikmalar texnologiyasini o'rganish •O'rtalik birikmalarni bajarishda ishlatiladigan materiallar, asboblari va moslamalar tavsifi •Ish uslubini ko'rsatish, tushuntirish. •Yaroqsizlik turlari va ularning oldini olish <p>Mehnat havfsizligi qoidalari. Ishlov berish va malaka hosil qilish</p> <p>2.3. O'quvchilarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qaratishni va yozib olishni ta'kidlaydi.</p> | <p>2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarga izoh beradi. Oylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Chizmalar va jadvallar bilan tanishib, ularning mazmunini muhokama qiladi.</p> <p>2.3. Eslab qoladi. qoidalar va ta'riflarni yozib olib ularga misollar keltiradi.</p> |

| | | |
|-----------------------------------|--|--|
| 3-bosqich Yakuniy (15 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va o'quvchilar e'tiborini asosiy masalaga qaratadi. 3.2. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantiradi. | 3.1. Eshitadi, o'z fikrlariga aniqlik kiritadi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi. |
|-----------------------------------|--|--|

Mashg'ulotning borishi

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, navbatchini tayinlash, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini

nazorat qilish. O'qituvchi o'quvchilarning mehnat ta'limidan buyumlartayyorlash texnologiyasi haqidagi

bilimlarini savol-javob orqali aniqlaydi.

Kirish yo'riqnomasi:

O'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan qo'l asboblarning turlari, tuzilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va rejalash va arralash vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra kesish, rejalashni va arralashni mashq qildirish haqidabuyumlartayyorlash(ko`rsatkich,yogoch kubik va h k)

Joriy yo'riqnomasi:O'quvchilarga mavzu yuzasidan quyidagi ma'lumotlar beriladi: Qo'l asboblarning tuzilishi va turlari, ulardan foydalanish qoidalari xaqida ma'lumot berish kerak. Xavfsizlik qonun qoidalari

xaqida tushunchalar berishduradgorlik asbob uskunalardan to'g'ri foydalanish usullarini mashq qilish bo'yicha amaliy ishlar bajariladi.

Yakuniy yo'riqnoma: Joriy yo'riqnoma berish vaqtida yo'l qo'yilgan xatoliklar tahlil qilinadi va tuzatiladi. o'quvchilar baholanadilar (nazariya masalalari va ilgari o'rganilgan materialni bilishi; bilimlarni amalda qo'llay olishi; ish usullarini to'g'ri bajarishi; xavfsizlik texnikasi qoidalari rioya qilishi; ish o'rnida belgilangan tartibni qo'llab-quvvatlashi; chizmani o'qiy olishi; topshiriqni mustaqil bajara olishi; bajargan ishning sifati; agar ish meyorlanmsa, belgilangan meyorida bajarishi).

Baholash mezoni

№ Baholanish ma'lum mezonga asoslanadi

2ball 5baho

-
- 1 Nazariy masalalari va ilgari o‘rganilgan materialni bilishi 0,3 ball
 - 2 Bilimlarni amalda qo‘llay olishi; ish usullarini to‘g‘ri bajarishi; 0,2ball
 - 3 Xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi; ish o‘rnida belgilangan tartibni qo‘llab-quvvatlashi; 0,3 ball
 - 4 Chizmani o‘qiyolishi 0,2 ball
 - 5 Topshiriqni mustaqil bajaraolishi; bajargan ishning sifati; belgilangan meyorda bajarishi 1 ball

Yog‘ochlarga kuydirib ishlov berish sotuvda bo‘ladigan yoki yasama elektr asbob yordamida bajariladi. Asbob komplektiga 127 yoki 220 V kuchlanishni 2 V kuchlanishiga pasaytirish uchun xizmat qiladigan transformator kiradi. Iste‘mol quvvati 120 Vt ga yaqin. Uchiga metal elektrod mahkamlangan tutqich (dasta) ish asbobi bo‘lib xizmat qiladi. Metall elektrod undan o‘tuvchi tok kuchi ta‘sirida cho‘g‘lanadi. Asbobning qo‘lda yasalgan konstruksiyasi quyidagicha: 5-6 mm li faner yoki taxtachadan yasalgan dastaga ikkita metall (latun yoki mis) plastinkalar mahkamlanadi. Bu plastinkalarning erkin uchlariga uncha katta bo‘lmagan gaykali vintlar yordamida diametri 0.4-05 mm bo‘lgan nixrom simdan yasalgan elektrod (ilmoq) mahkamlanadi. Bu maqsadda 127 V kuchlanishga mo‘ljallangan elektr plitkaning simidan foidalanilgani ma‘qul. Metall plastinkalarning qarama-qarshi uchiga elektr simlarning uchlari mahkamlanadi, shundan so‘ng kuydirgichning butun dastasi izolatsiya lentasi, uning ustidan esa ingichka sim bilan o‘raladi. Bunday dastani ushlab qulay bo‘ladi va u ish vaqtida uncha qizimaydi. Transformator tarmoqqa ulanganda sim cho‘g‘lanadi va uning uchli o‘rta qismi bilan kuydiriladi. Barcha ulangan joylar juda puxta bo‘lishi lozim: simlarning ochiq uchlari hech qaerda bir-biriga tegmasligi kerak, aks holda qisqa tutashuv sodir bo‘ladi; ularni izolyatsiya lentasi bilan o‘rash lozim.

Kerakli kuchlanishdagi tok hosil qilish uchun maktabda ishlatiladigan pasaytiruvchi o‘quv-tajriba transformatorlardan yoki bolalar “Elektr konstruktor” naborlaridagi transformatorlaridan, shuningdek kuchlanishi va quvvati buyicha shunga to‘g‘ri keladigan boshqa asboblardan foydalanish mumkin. Asbob transformatorning ikkilamchi cho‘lg‘amidagi “2 V” qisqichiga ulanadi. Agar bunda uchlik etarli qizimasa (u tiniq qizil rangli bo‘lishi kerak) transformator esa

kuchlanishning boshqa pog'onasiga ega bulsa, u holda elektr kuydirgich "3 V" yoki "4 V" li qisqichlaridan biriga ulanadi. Elektr kuydirgichni transformatorga faqat transformator elektr tarmog'idan uzilgan holdagina qayta ulash kerak.

Ishlayotgan paytda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak: tanaffus vaqtida transformatorni tarmoqdan albatta uzib quyish, asbobning esa uning simi sovimagunga qadar taglikka quymaslik lozim.

Kuydirish uchun material sifatida yog'och yoki faner, yaxshisi yumshoq yog'och (arg'ivon, terak va olxa) lardan foydalanilgani ma'qul. Kuydirib gul solish uchun rasmi maxsis albomlar ishlab chiqariladi; bu maqsad uchun, shuningdek, lobzik bilan arralash uchun mo'jallangan albomdagi rasmlardan, buyash uchun bolalarga chiqariladigan albomlardan, kitob va jurnallarning rasmlardan ham foydalanish mumkin.

Yog'ochga rasmni to'g'ri ko'chirish juda muhim. Buning uchun tanlangan rasm kalka yoki papiros qog'oziga ko'chirib olinadi, so'ngra nusxa ko'chirish qog'ozi yordamida yog'och sirtiga o'kaziladi. Yog'ochga nusxa ko'chirishdan oldin, u jilvirlanadi yaxshilab pardozlanadi.

Naqshlarni va bir xil konturli rasmlarni kuydirib hosil qilishda fanerdan arralangan yoki qattiq qog'ozdan kesilgan andaza (shablon) lar va trafaretlar ishlatilishi mumkin. Ularning yog'ochning yaxshi pardozlangan sirtiga quyib qalam bilan chizib chiqiladi.

Dastlabki sinab ko'riladigan rasmlarni nuqta quyib kuydirish kerak. Zich yoki siyrakroq nuqtalar quyib, ularning o'lchamlarini va chuqurligini o'zgartirib, tasvirlanadigan predmetlar hajmini katta qilib ko'rsatish, yorug'dan soyaga o'tishlarni hosil qilish mumkin. Buyumga kuydirib gul solish vaqtida uni stol ustiga nisbatan ma'lum burchak ostida va ko'zdan 30-35 sm oraliqda o'rnatish kerak. Eng muhimi buyumning ishlov beriladigan sirti yaxshi yoritilgan bo'lishi lozim.

Ish vaqtida yog'ochning kuyishi natijasida xonaning havosi buziladi, shuning uchun xonani vaqti-vaqti bilan shamollatib turish kerak. Kuydirish vaqtida ko'z nisbatan tez charchaydi, shuning uchun har 15-20 minutdan so'ng dam olish lozim.

Kuydirilgan buyum bir xil rangga bo'yalishi, rang-barang qilib bo'yalishi yoki lak bilan qoplanishi mumkin. Rang-barang qilib bo'yash uchun suvda eritiladigan buyoqlar (anilin buyoqlari, har xil tushlar, rangli siyohlar) tanlanadi.

Buyumni tezob (yog'ochni bo'yash uchun ishlatiladigan o'tkir suyuq modda) bilan jigarrang bo'yash mumkin. Bo'yashdan oldin buyumning sirtini jilvir qog'az bilan yaxshilab tozalash kerak. Oxirgi tozalashda jilvir qog'ozni yog'ochni faqat tolasini bo'ylab yurgizish lozim. Bo'yagichlarning suvdagi eritmalari juda ham quyuvchan bo'lmaligi kerak; rangning ravshanligi va quyuvchanligiga erishish uchun bitta joyga buyuqning suyuq eritmasidan 2-3 marta surkash etarli bo'ladi.

Yog'ochning kesilgan joylari, shuningdek fanerning qirralari buyashdan oldin suv bilan namlanadi, chunki yog'ochning bunday joylari namni, shu bilan birga buyuqni ham yon tomonlariga nisbatan koproq shimib oladi va bo'yalgandan so'ng nisbatan ko'proq shimib oladi va bo'yalgandan so'ng nisbatan to'qroq bo'lib chiqishi mumkin. Bo'yash vaqtida yog'ochning tolasini bo'ylab mayda bo'yoq oqimlari hosil bo'lmasligi uchun kontur chegaralari bo'yicha chiziqlarni uzluksiz kuydirish kerak.

Kuydirib naqsh solingan buyumlarni rang-barang qilib bo'yash uchun uncha katta bulmagan yumshoq cho'tkadan foydalaniladi. Buyumni sirtini yaxlit qilib bo'yash uchun bo'yoq toza ip gazlamaga o'ralgan paxta tampon bilan surkalada. Bo'yoqning bir tekis bo'yalishiga erishish uchun bo'yoq berilgandan so'ng tezlik bilan bo'yalgan sirtini toza yumshoq latta bilan artish kerak.

Labaratoriya ishi № 1


Mavzu: Yog'ochlarga randalovchi dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi.

Ishdan maqsad: Talabalarga yog'och materiallariga randalovchi dastgohlarning vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipiga oid bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Yog'och materiallarining namunalari, randalovchi dastgohning texnologik xaritalari va slaydlari

Nazariy ma'lumotlar.

Yog'och materiallarni qo'lda randalash bilan bir qatorda randalash stanogi yordamida ham randalanadi. Randalash stanogi stanina 9 ustiga o'rnatilgan oldingi 7 va ketingi 2 plitalardan iborat, plitalarning orasida val 5 aylanadi. Randalash stanogini ishga sozlashda tig'lar ketingi plita tekisligiga moslab o'rnatiladi. Yupqa yoki qalin payraxa olish oldingi plitani richag 4 yordamida ketingi plitaga nisbatan ko'tarish yoki pastga tushirish yo'li bilan sozlanadi. Randalash vaqtida randalanadigan taxta material oldingi plitadan ketingi plitaga qarab suriladi. Bunda kesish yo'nalishi (tig'ning aylanishi) bilan surish (taxtaning harakat yo'nalishi) hamma vaqt bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi. Randalash stanogida taxta materialning bir tekis randalanishini ta'minlash uchun uni oldingi plitaga jips holda suriladi. Taxtalarining chetlarini «bet»ga nisbatan to'g'ri burchak ostida (go'niyaviy) randalash uchun uning «bet» qismi yo'naltiruvchi lineyka 3 ga jips taqalgan holda surib boriladi. Yo'naltiruvchi lineykani plitalarga nisbatan turlicha burchak hosil qilib joylashtirish bilan taxta chetlarini «bet»ga nisbatan har xil burchak hosil qilib randalanadi. Yupqa taxtalarni randalashda (umuman har qanday qalinlikdagi taxta randalanishidan qat'i nazar) panja yoki kaft tig'ga tushib qolmasligi uchun surish ishi moslamalar yordamida bajariladi. Randalash vaqtida val ostida payraxaning to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Uni vaqt-vaqti bilan tozalab olib turiladi. Tozalash stanokni elektr tarmog'idan uzib, val harakatdan to'xtatgandan so'ng olib boriladi. Tig'lar o'tmaslanib qolganda ularni valdan chiqarish va o'tkirlangandan so'ng qayta o'rnatish yoki yangi tig'lar almashtirishda elektrik dvigatelini faqat stanokning o'ziga montaj qilingan kalit yordamida uzish bilan kifoyalanmasdan, balki shchitdagi rubilnikni uzib qo'yishga alohida e'tibor beriladi yoki bu vaqtda shkivdan tasmani chiqarib qo'yiladi.



R

andalash stanogi:

a-umumiy ko'rinishi: 1-elektrik dvigatel; 2-orqa plita; 3-(y|o'naltiruvchi lineyka; 4-oldingi plitani sozlash dastasi (richagi); 5-val; 6-ihota; 7-oldingi plita; 8-boshqarish qutisi; 9-stanina; 6-plitalarni ishga sozlash: 1-orqa plita; 2-oldingi plita; 3-payraha qalinligi.

Ishni bajarish tartibi:

- 1.** Talabalarda randalovchi dastgohlarning vazifasi, turlari, tuzilishi, ishlash prinsipi ularning ishga sozlash va mashq qilishga oid bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
- 2.** Randalovchi dastgohlarda, randalab tozalangan ish namunalari, ishlov berish texnologiyasiga oid taqdimotlar, slaydlar va tarqatma materiyallar
- 3.** Yog'ochlarga ishlov beruvchi randa dastgohlarini ishga sozlashni o'rganish.
- 4.** Randa dastgohlarni yog'och materiallariga dag'al va mayin ishlov berishni sozlashni o'rganish.
- 5.** Yog'och materiallariga randalovchi dastgohlarda ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqish.
- 6.** Randalovchi dastgohlarni kesuvchi pichoqlarni o'rnatish va oldingi stolga nisbatan sozlashni o'rganish.
- 7.** Randalovchi dastgohlarni ishga tushirish va ishdan to'xtatish jarayonlari bilan tanishtirish.

Labaratoriya ishi № 2

Mavzu: Yog'ochlarga reysmusli frezali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi.

Ishdan maqsad: Talabalarda yog'och materiallariga reysmusli frezali dastgohlarning vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipiga oid bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Yog'och materiallarining namunalari, reysmusli frezali dastgohning texnologik xaritalari va slaydlari.

Nazariy ma'lumotlar.

Reysmusli stanoklar. Reysmusli stanoklar qalinlik bo'yicha berilgan taxta, bruscha, shchitlarni frezalashtirishga mo'ljallangan va ularda qat'iy parallel tekisliklar hosil qilinadi. Taxta va bruslarning bir sirtini randalaydigan bitta pichoqli bir tomonlama hamda ikki sirtini bir vaqtda randalaydigan ikki tomonlama randalash stanoklari bo'ladi.

Bruscha va taxtalarni randalash va ikki tomonlama frezalashtirishda FR6-1 fugankalash-reysmusli stanok ishlatiladi. Bu stanokda randalash va frezalashtirish operatsiyalari qo'shib ketgan. Zagotovkalarni pichoqli kallak bilan frezalashtirish zonasida bazalash uchun vakuum sistemasidan foydalanilganligi juda kam egilgan bruschalarga ham ishlov berishni ta'minlaydi. Zagotovkalarni uzatish mexanizatsiyalashgan.

Stanokda uzunligi 400—2000 mm, kengligi 20—630 mm, qalinligi 15—120 mm, qalinliklaridagi farq 8mm gacha bo'lgan zagotovkalarga bosqichsiz 4 – 8 m/min uzatish tezligida ishlov berish mumkin.


Elektrik dvigatellarning umumiy belgilangan quvvati 32,5kVt. Stanokning gabarit o'lchamlari 7500X1155x1610 mm, massasi 4050kg. Qatlam va qirralarni frezalashtirishdan keyin zagotovka burchagida to'g'rilangan bazaviy sirt hosil bo'ladi, shu sababdan reysmusli stanokda ishlaganda zagotovka o'lchamlari aniq chiqadi.

Ancha egilgan sirtlarni oldindan randalamay ishlov berish natijasida sifatli sirt hosil bo'lmaydi, chunki uzatish valiklari zagotovkani to'g'rilaydi, biroq zagotovka stanokdan chiqishi bilan dastlabki egilgan holatini egallaydi.

Stanok staninasi cho'yandan yasalgan. Unga stol, pichoqli vallar, uzatish va yuritish mexanizmlari, pichoqli val va uzatish mexanizmining elektrik yuritmalari

joylashtirilgan. Bir tomonlama randalash reysmusli stanokning sxemasi rasmda ko'rsatilgan.

Stanok stoli elektrik dvigateldan harakatga keltiriladigan ko'tarish mexanizmi bilan yuqoriga va pastga harakatlantirilishi mumkin. Stol ishlanadigan zagotovka qalinligiga qarab o'rnatiladi. SHarikli podshipniklarda aylanadigan pichoqli val elektrik dvigateldan ponasimon tasmali uzatma orqali harakatlantiriladi. YOg'och materiallar stanokka valiklardan tuzilgan uzatish mexanizmi yordamida uzatiladi, bu valiklarning oldingi yuqorigisi riflidir. Bu valik yaxlit yoki seksiyali bo'lishi mumkin. Seksiyali uzatish valigi riflangan sirtli halqa 3 hamda rezina barmoqlar 4 kiydirilganda val 5 dan iborat. Stanokda rifli valiklarning borligi, qalinliklaridagi farq 4mm gacha bo'lganda yog'och materiallarni randalash imkonini beradi. Ishlanadigan material tayanadigan pastki silliq val plitadan bir oz (2mm gacha) ko'tarilib turishi mumkin, bunda ko'tarilib turish kattaligi rostlanadi. Pichoqli val oldiga siqish kolodkasi o'rnatilgan, bu kolodka qirindi sindirgich vazifasini bajaradi va bir vaqtning o'zida materialni siqib turadi. Pichoqli val orqasida ishlanadigan materialning tebranishini bartaraf qiladigan siqish kolodkasi o'rnatilgan. Uzatish valiklari oldiga saqlash qurilmasi o'rnatilgan; bu qurilma valga terilgan tirnoqlar qatoridan iborat bo'lib, u ishlanadigan materialni stanokdan chiqarib tashlashga yo'l qo'ymaydi.



Bir tomonlama reysmusli stanokning tuzilish sxemasi:


1—stanok stoli, 2—ishlanadigan zagotovka, 3 — zagotovka chiqib ketishiga yo'l qo'ymaydigan saqlash qurilmasi (kogtali himoya), 4 — yuqorigi taram-taram uzatish valigi, 5 — oldingi siqish kolodkasi (payraha sindirgich), 6 — pichoqli val, 7 — ketingi qisish kolodkasi, 8— yuqorigi uzatuvchi silliq valik, 9— ketingi silliq valik.

Ikki tomonlama reysmusli stanokning staninasida yuqori uzatish valiklari hamda yuqorigi pichoqli val bilan yuqorigi blok, stol va pastki (odatda, yuqorigi pichoqli val orqasida joylashgan) pichoqli val joylashgan. Stol elektrik dvigateldan harakatlanadigan mexanizm bilan ko'tariladi va tushiriladi. Stanokka material uzatish valiklari vositasida uzatiladi.

Reysmusli stanokka fugankalash stanogida ishlov berilgan zagotovkalar uzatiladi. Reysmusli stanokda ishlaganda stanok stolining kengligidan to'liq foydalanishga e'tibor berish kerak, buning uchun stanokka bir vaqtda maksimal miqdorda zagotovka uzatish kerak. Zagotovkalarni stanokka ketmaket uzluksiz uzatib turish lozim.

Nuqsoni yaqqol ko'rinib turgan zagotovkalarga ishlov bermaslik kerak. Stanokda ikki ishchi ishlaydi. Ishlangan zagotovkada o'yiqlar, yuliqlar, chiziqlar va boshqa nuqsonlar bo'lmasligi kerak.

Stanokda ish boshlashdan oldin pichoqlarning to'g'ri o'rna-tilganligini, ularning charxlanishini tekshirib ko'rish kerak. Pichoqli valning pichoqlar qo'yiladigan yuzasi tekis, pachoqlanmagan hamda qirilmagan, qirindi va loydan tozalangan bo'lishi kerak. Qirindi sindirgich qirrasini qat'iy to'g'ri chiziqli, siniqsiz bo'lishi kerak.



Reysmusli stanokning seksion valigi:

a—materialni uzatish sxemasi, b—taram-taram valning konstruk-tsiyasi: 1—podshipnik, 2—qisish moslamasini mahkamlash stoykasi, 3—halqa, 4—rezina barmoqlar, 5— halqalarni o’rnatish vali.

Stanok stoli tekis, gorizontal bo’lishi kerak. Uzatish valiklari qiysmaymagan bo’lishi kerak. O’rnatiladigan pichoqlar balansirlangan, massasi, qalinligi, kengligi va uzunligi bir xil bo’lishi kerak.

Stanokda ishlaganda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak. Pichoqli valda to’siq, materialning qaytib chiqishiga qarshi qurilma pastga tushirilgan bo’lishi kerak. Uzunligi oldingi va ketingi uzatish valiklari orasidagi masofadan kichik bo’lgan zagotovkalarni ishlash yaramaydi. Stanok ishlab turgan vaqtda uni tozalash, sozlash va remont qilish taqiqlanadi.

Ishni bajarish tartibi:

1. Talabalarda yog'och materiallariga reysmusli frezali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasiga oid xavfsizlik qoidalarini o'rganish.
2. Reysmusli frezali dastgohlarni vazifasi, tuzilishi, va ishlash prinsipini o'rganish.
3. Reysmusli frezali dastgohlarda yog'och materiallarni yon tomonlarni randalovchi frezalarni o'rnatish va ishga sozlashni o'rganish.
4. Yog'och materiallarigareysmusli frezali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqish.
5. Reysmusli frezali dastgohlarni ishga tushirish va ishdan to'xtatish jarayonlari bilan tanishtirish


Labaratoriya ishi № 3

Mavzu: Yog'ochlarga parmalash va o'yish dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi.

Ishdan maqsad: Talabalarda yog'och materiallariga parmalash va o'yish dastgohlarning vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipiga oid bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Yog'och materiallarining namunalari, parmalash va o'yish dastgohining texnologik xaritalari va slaydlari.

Nazariy ma'lumotlar.



Yog'och materialni yo'nish-teshish ishlari iskanalar bilan bir qatorda stanoklar yordamida ham bajariladi. Bu ishlarda o'yuvchi stanoklardan foydalaniladi. O'yuvchi stanok yordamida yog'och materiallarni har xil burchak ostida o'yish, teshish, quloq ochish kabi ishlar bajariladi.

I-1 o'yuvchi stanok ko'rsatilgan. Uning asosiy qismlari tayanch rama 1 va unga o'rnatilgan ikkita vertikal kolonka 2, kolonkalar bo'ylab suruluvchi elektrik dvigatel 3 dan iborat.

Elektrik dvigatelning valiga o'rnatilgan etakchi yulduzcha 4 ga kesuvchi zanjir 5 kiydiriladi. Kesuvchi zanjir elektrik dvigatelning korpusiga o'rnatilgan yo'naltiruvchi planka 7 yordamida taranglanadi, bolt 6 bilan qaytariladi. Yo'naltiruvchi plankani vertikal yo'nalishda siljitish mumkin.

I-1 markali o'yuvchi qo'l stanogi:

1-tayanch rama; 2-kolonka; 3-elektrik dvigatel; 4-etakchi yulduzcha; 5-o'yuvchi zanjir; 6-zanjirni taranglab qotiruvchi bolt; 7-yo'naltiruvchi planka; 8-cheklangich halqa.


Ish vaqtida kesuvchi zanjir elektrik dvigatel bilan birgalikda pastga tushiriladi. Buning natijasida o'yish, teshish ishlari bajariladi. Ma'lum chuqurlikdagi uya o'yish uchun kolonkalardan biriga o'rnatilgan cheklangich halqa 8 dan foydalaniladi.

Kesuvchi zanjir o'zaro sharnirlar yordamida biriktirilgan bir necha ayrim zanjir qismlaridan iborat. O'yuvchi stanok komplektida eni har xil bo'lgan to'rtta kesuvchi zanjir bo'ladi. Ular yordamida chuqurligi 150 mm gacha bo'lgan 8X40, 12X40, 16X40, 20X55 mm kenglikdagi teshiklar ochish va uyalar o'yish mumkin.

O'lchamlari bundan katta bo'lgan uya va teshiklar ochishda yog'och kesuvchi zanjirga nisbatan bo'ylamasiga yoki ko'ndalangiga suriladi.

Parmalash stanogi

Parmalash stanogi slesarlik ishlarida metall materiallarni parmalash uchun mo'ljallangan, lekin undan yog'och materiallar parmalashda ham foydalanish mumkin. Stanokda parmalash kolovorot va drel yordamida parmalashga qaraganda birmuncha qulay.



Parmalash stanogi

1-plita; 2-kolonka; 3-konsol; 4-elektrik dvigatel; 5-shpindel; 6-shpiidelni suruvchi dasta; 7-boshqarish qutisi; 8-tsangali patron; 9-extiyot to'sqichi.

Parmalash stanogi plita 1, kolonka 2 va unga o'rnatilgan konsol 3 dan iborat. Konsol reykali uzatma yordamida kolonka bo'ylab vertikal yo'nalishda


siljiydi. Konsol bilan birgalikda unga o'rnatilgan elektrik dvigatel 4 va shpindel 5 harakatlanadi. Parmalanadigan yog'ochning qalin-yupqaligiga qarab konsolni kolonka bo'ylab plitaga yaqinlashtirish yoki undan uzoqlashtirish mumkin. SHpindelga tsangaviy patron 8 o'rnatilib, unga kerakli diametrdagi tsilindrlik quyruqli parmalar qotiriladi. Konussimon quyruqli parmalar bevosita shpindelning o'ziga kiritib qotiriladi.

SHpindel konsolga nisbatan dasta 6 yordamida reykali uzatma bo'ylab suriladi. SHpindelga pog'onali shkiv kiydirilgan. SHkiv elektrik dvigateldan harakatga keltiriladi, uning yordamida shpindelning aylanish sonini o'zgartirish mumkin.

Parmalash stanogida ishlaganda quyidagi xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish talab etiladi.

1. SHkivlarni ixotalab qo'yish kerak.
2. Ish vaqtida tasmani almashtirish yaramaydi.
3. SHpindelni to'xtatish uchun tasmani qo'l yordamida tormozlamaslik kerak.
4. Ish vaqtida parmani yog'ochdan o'tib ketib, plitani parmalar qo'ymasligi, uni ishdan chiqarmasligi lozim. Buning uchun parmalanuvchi yog'och ostiga ehtiyot taxtasi o'rnatiladi.

Parmalash katta tezlikda olib boriladi. SHuning uchun parmalanadigan yog'ochni mahkam ushlab, qo'yib yubormaslik talab etiladi. Aks holda yog'och qo'ldan chiqib ketib, ishlayotgan odamni shikastlaydi. Parmalash va o'yish stanoklarida uyalar, ariqchalar, teshiklar ochiladi, shuningdek yog'och ko'zlarini o'yib olinadi. Qichikroq teshiklar avtouzatmali SVPA-2 gorizontol parmalar stanoklarida spiralsimon parmalar bilan, yirik teshiklar va ariqchalar—DTSA-3 zanjirli o'yish stanoklarida ochiladi. Daraxt ko'zlarini parmalar va teshik ochishda SVSA-2 stanoklaridan foydalaniladi.



Parmalash asbobi:

a—parma elementlari, b—tsilindrik bandli markaziy parma, e—yog'och ko'zini parmalaydigan parma, 2— tsilindrik bandli spiralsimon parma, d, e— tsilindrik bandli vintsimon parma, j — itarib chiqargich hamda tsilindrik bandi bo'lgan tsilindrik kes-kich, 3 — xuddi shuning o'zi, faqat bandi konussimon,

L - parma uzunligi,

L_0 — ish qismining uzunligi, D — parma diametri,

d — bandining diametri.

h — yo'naltiruvchi markaz balandligi,

h_1 — keskichlar balandligi,

α — qirra torets qismining keting burchagi,

β — o'tkirlanish burchagi.

Parmalash va o'yish uchun asboblari. Duradgorlik va qurilish detallarida teshiklar va uyalar ochishda ish xarakteri va bajarilish shartiga ko'ra ma'lum talablarga javob beradigan turli ko'rinishdagi parmalar ishlatiladi.

Hamma turdagi parmalar uchun parmaning qirquvchi elementi erkin qirqish jarayonini ta'minlashi lozim, bunda hosil bo'lgan qirindi teshikdan osongina chiqib ketishi kerak. Parma konstruksiyasi shunday bo'lishi kerakki, charxlash vaqtida parmalash parametrlari o'zgarmasin. Parmalash uchun mo'ljallangan asbob turlari va uning elementlari rasmda keltirilgan. Markaziy parma qator kamchiliklarga ega: tayyorlash, qirindi chiqarishi qiyin, shu sababli u kamroq iidlatiladi. Qeskichli parma asosan yog'och ko'zlarini parmalab olishda ishlatiladi. Spiralsimon parmalar teshiklar ochishda quyidagi xususiyatlari tufayli keng qo'llaniladi: silliq sirt hosil bo'ladi, oson charxlanadi, charxlangandan keyin parmaning qirquvchi qismining parametrlari o'zgarmaydi.

YOg'ochni bo'ylama va ko'ndalang parmalashda vintsimon parmalar ishlatiladi. Ko'z o'rinlarini va parron teshiklarni berkitish uchun tiqinlar yasashda turkchli tsilindrik arracha ishlatiladi.

